


**Ватан ва халқ озодлиги, келгуси
авлодларнинг бахту саодати йўлида
мардлик ва жасорат кўрсатган инсонлар
хотираси ҳамиша барҳаёт яшайди.**

Шавкат МИРЗИЁЕВ



Xotira va qadrlash kuni



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Postda на посту

2024-yil
9-may
payshanba

№ 19 (4661)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz



ИЛМГА ТАЯНГАН ИРОДА

Тарих фанлари номзоди, таниқли олима Маргарита Филановичнинг болалиги Иккинчи жаҳон уруши йилларига тўғри келган. Умрининг 76 йилини Тошкент шаҳрида ўтказиб, Ўзбекистонни ватаним дейдиган бу табаррук аёл пойтахтимизда ўрта мактаб ва олийгоҳда таълим олиб, археология соҳасида катта ютуқларга эришди.

Матонатли аёл, салоҳиятли олиманинг ибратли ҳаёт йўли ҳақидаги мақола билан газетамизнинг 3-саҳифасида танишасиз.



JANGGOHLARDAN OMON QAYTGANLAR

DAVLATMAND DADAM

Yoshi ulug', tabarruk insonlar oramizda bor ekan, biz baxtiyormiz. Chunki ularning pand-nasihatlari, suronli kunlarni xotirlab aytgan so'zлari tinchlikni qadrash va shukr qilib yashashga undaydi. Ana shunday nuroniy keksalardan biri dadam – Ahmed bobo Muhsinovdir. U ikkinchi jahon urushi qatnashchisi hamda ichki ishlar organlarida samarali xizmat qilib, mayor unvonigacha bo'lgan mashaqqatli va sharafli yo'lni bosib o'tgan insondir.

Dadam bolalik davrini va o'sha og'ir urush yillarini sira yodidan chiqara olmaydi. Ota-onadan erta ayrılib, Jamila ammam qo'lida voyaga yetgani va aqli to'lishib, endi biror kasbning etagini tutaman deganda, ko'ngillilar qatorida urushga otlanganini har safar bizga hikoya qilib berarkan, qalbimiz g'ururga to'ladi.

Dadam umri davomida qancha-qancha sinovlarni boshdan kechirmadi. Yaxshi kunlar keladi, degan umid bilan yashab, kurashdi. Shukrki, orzu qilingan davrlar keldi. Mamlakatimiz osoyishta, aholisi farovon. Hamma tinch-totuv yashab, mehnat qilyapti. Prezidentimizning beqiyos g'amxo'rliklari tufayli keksalarga ko'rsatilayotgan e'tibor, e'zoz va muruvvatdan ko'nglimiz tog'dek ko'tarilmoqda.

1942-yil o'n olti nafar qishloqdosh yigitlar bilan urushga ketgan dadam Stalingradda kechayotgan qirg'inbarot janglarda qatnashadi. So'ng Vladivostokdagi dengiz piyodalari batalyonida



Suratda: viloyat hokimi Botir Zaripov, IIB boshlig'i, polkovnik Mirjamol Miralimov va boshqa mutasaddilar urush qatnashchisi Ahmed otaga Prezident tabrigi va mukofotlarni topshiqmoqda.

harbiy xizmatda bo'ladi. Bu orada Kavkazni ham fashistlardan himoya etishda qatnashadi. 1947-yilda ona shahrimiz Buxoroga qaytadi.

Viloyat bosmaxonasida mas'ul lavozimda ishlab, Buxoro pedagogika institutining tarix fakultetida sirtdan o'qib, diplomli bo'lgach, Romitan tumanining Chelong'u qishlog'idagi o'rta ta'lim maktabida o'qituvchilik qildi. 1969-yildan to 1984-yilgacha

ichki ishlar organlarida samarali xizmat qildi. O'nlab shogirdlar tayyorladi. Rahmatli onamiz bilan yetti nafar farzandni tarbiyalab, voyaga yetkazdi, o'qitdi, uyli-joyli va kasb-korli qildi. Qisqasi, barchamizni el-yurt xizmatini sharaf deb bilgan kishilar sifatida yetishtirdi. Muxtor akam dadamning izidan borib, kam bo'lmadi. Afsuski, afg'on urushida olgan asoratlari tufayli 2007-yil vafot etdi. Olti opa-uka hozir

pensiyadamiz. Ayni paytda dadamning 19 nabirasi, 38 evarasi va 4 nafar chevarasi bor.

Bir so'z bilan aytganda, men shunday insonning farzandi ekanligimdan faxrlanaman. Zero, dadam mening baxtim, davlatimdir.

Abror MUHSINOV,
mehnat faxriysi.

Buxoro viloyati.

MENING «KATYUSA» BOBOM

– Bobom bu yil bir kam 100 yoshni qarshi oldi. Bir necha yil qonli janglarda ishtirot etib, Yaratganning inoyati bilan ona yurtga eson-omon qaytgan, ko'plab mashaqqat va sinovlarni boshdan o'tkazgan bo'lsa-da, yuzidan xushchaqchaqlik va samimiylit arimaydi. Har doim bugungi dorilamon kunlarga shukrona keltirib, bizlarni ham sabrli va shukurli bo'lishga undaydi.



Bobom urushga ketgani-da 18 yoshda bo'lgan ekan. Janggholardan omon qayt-

gach, ichki ishlar organlariga xizmatga kirib, 30 yil yong'in xavfsizligi xizmatida faoli-

yat ko'rsatgan. Keyinchalik bobomning maslahati bilan menda ham shu sohaga

qiziqish uyg'ondi. 2009-yilda sinovlardan muvaffaqiyyatli o'tib, yong'in xavfsizligi xizmatiga qabul qilindim.

Bobom ko'zlariga yosh olib «Kasbimni tanlaganidan juda xursandman, bolam. Hech qachon yuzimni yerga qaratma, hamisha xalqqa sadoqat bilan halol xizmat qil», – deya duo qilgani hech qachon yodimdan chiqmaydi.

Ana shu duo va o'gitlar hayotimda muhim dasturilamalga aylandi. 15 yildirki, har kuni ishga ketayotganimda u kishining duosini olishga odatlanganman.

Ilgari bobom bayram tadbirlarida ishtirot etib, mashhur «Katyusha» qo'shig'iga raqsiga tushardi. Shu bois haligacha odamlar hazil qilib «Katyusha boba» deb chaqiradi. Bir-ikki yildan buyon salomatligi yomon-lashgani tufayli tadbir-larga borolmay qoldi. «Qani endi, yoshlikka qaytsam-u, oyoqlarimga darmon kirib,

«Katyusha»ga raqsga tushsam», deydilar.

Bobomning suhbatidan bahramand bo'lish uchun xonadonimizdan mehmonlar arimaydi. Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi rahbariyati, tuman hokimligi va ichki ishlar bo'limi mutasaddilar, hudud profilaktika inspektori hamda mahalla faollari uni doim yo'qlab, holidan xabar olib turishi bdi. Xotira va qadrlash kuni yaqinlashgani sari uyimiz yanada fayzga to'imqoqda.

Bobom va buvijonim ahillikda 4 nafar farzand o'stingan. Nabiralarning soni 10 nafardan, chevaralari esa 30 nafardan oshib ketgan.

U kishi uzoq umr ko'rish siri haqida gapirib, doim shunday maslahat beradi: «Qalbing toza bo'lib, insonlarga hamisha yaxshilik qilsang, eng muhimi – xushchaqchaq yursang, albatta, yuzga kirasan!».

Muhiddin SHOKIROV,
Oltiariq tumani FVB
26-yong'in qutqaruvi
qismi haydovchisi.

ИЛМГА ТАЯНГАН ИРОДА

(Давоми. Бошланиши 1-бетда.)

Уруш бошланган йили Маргарита 4–5 ёшли қызалоқ әди. Вазият тақозоси билан аёллар ва болалар Ленинград яқинидаги қишлоққа эвакуация қилинади. У ерда ҳам бомбардимон бошланганида, улар қишлоқдан онасининг дугонаси Зина ҳамда унинг икки нафар қизи билан бирга душмандан қочиб, яна шаҳар томон йўлга чиқади. Йўлда немислар самолёти пайдо бўлиб, уларни ўқса тутади. Лекин улар ўқлар ёмғиридан омон қолиб, Ленинградга етиб олишади.

Шундан сўнг Маргарита онаси билан Ленинградга – бобоси ва бувисининг олдига боришади. Кейинчалик онаси Новосибирскка меҳнат фронтига жўнаб кетади. Отаси эса урушга кетиб, бедарак йўқолган. У онасининг бувиси ва ота-онаси – бобоси ва бувиси билан бирга Ленинградда қолди. Шаҳар қамал қилингач, оғир кунлар бошланди. Ҳар куни 120 грамм нон уч маҳалга ажратиб, тақсимлаб бериларди. Бобо ишга кетар, Маргарита эса бувилари билан уйда қоларди.

Уларнинг хонадони кўп қаватли уйнинг биринчи қаватида әди. Уйнинг ертўласи мустаҳкам бўлганлиги боис уй орқасидаги мактаб биносига жойлашган касалхонадаги одамларнинг ҳаво ҳужумидан қочиб киришлари учун девордан тешик очилган. Ҳаво ҳужуми тўғрисидаги хабарлар деярли ҳар куни эълон қилинар, баъзида бир неча соатдан бир неча кунгача давом этарди. Айrim ҳолларда, одамлар яширган жойларидан чиқиб, уйларига етиб бормасидан, қайтадан ҳаво ҳужуми хавфи эълон қилинар, яна ертўлага қайтиб келишарди. Ертўлада бомбадан сақланиш жойи, касалхона, мактаб, боғча ва болалар учун кутубхона ҳам ташкил этилган әди. Маргарита шу ердаги болалар боғчасига бораради. У ерда озгина нон, шўрва ва баъзида обакидандон ҳам бериларди. Маргарита ўзига берилган улушдан уйига олиб келишга ҳаракат қиласди.



– Бир куни чўнтағимга яшириб олган нонимни бир бола кўриб қолиб, уни тортиб олиш учун қўлларимни ойна бўлаги билан кесиб олган, – дейди Маргарита Филанович. – Лекин мен нонимни бермай, уйга олиб келганман. Бошқа бир куни эса эрта тонгдан ҳаво ҳужумини эшитган бувим, менга иссиқ кийимларимни кийдиришни бошлади. Шунда икки

уй нарида жойлашган етти қаватли тураржойга бомба тушди. У уйни икки бўлакка ажратиб, кунпаякун қилди. Бомбанинг зарбидан бувим билан уй хонасидан кўча эшиги остонасига учиб тушдик. Қимирламай жим ётардим, бувим «ўлдиришди, ўлдиришди», деб такрорларди. Мен эса болалигимга бориб, учиш ҳиссисидан завқланардим...

Қамал бошланган йилнинг биринчи ва иккинчи қиши жуда қахратон совуқ бўлган. Ўйлар сувсиз, электрсиз ва ёқилғисиз қолган. Улар қоронги тунларда совуқдан сақланиш учун бир-бирларини қулоқлаб ётарди. Ленинград қамали тугагач, Маргарита бувилари ва бобоси билан Ладога кўли орқали кичик қайиқларда онасининг олдига – Новосибирскка жўнаб кетган. Ундан сўнг оила Белоруссиянинг урушдан озод қилинган ҳудудларига ўборилган.

Бир неча йил сарсон-саргардонликда юрган оила 1948 йилда Тошкентда қўним топди. Ўрта мактабни шу ерда тугатиб, Ўрта Осиё давлат университетининг тарих факультетига ўқишга кирган ёш тарихчига археология кафедраси раҳбари Михаил Массон устозлиқ қиласди. 1959 йилда Маргарита олийгоҳни имтиёзли диплом билан тугатди.

Профессор М. Массон
1897 йилда Петербургда туғилган бўлиб, археолог, тарихчи ва шарқшунос сифатида ном қозонган. Бир қанча археологик комплекс экспедицияларда қатнашиб, қадими ёдгорликлар тилсимини очишида ўз ҳиссасини қўшган. 1986 йилда Тошкентда вафот этган.

Маргаританинг археология қизиқиши бежиз эмасди. Ҳали кичкиналигига бувисининг китоблари орасидаги қадимги Миср тарихига оид манбани кўриб қолган ёш қизчани буюк тарихга эга давлатнинг манзаралари, маҳобатли бинолари ва археологик топилмаларнинг расмлари ўзига оҳанрабодек тортади. Шу-шу, унинг қалбида осори атиқаларга қизиқиш пайдо бўлган.

1966 йилги кучли зилзила оқибатларини бартараф этиш ва кейинчалик пойтахтнинг қайта тикланиши муносабати билан шаҳардаги янги биноларни археологик мониторинг қилиш учун 1967 йилда археология гурухи тузилиди. М. Филанович В. Булаторов раҳбарлигидаги гурухга кўшилади. В. Булаторов пенсияга чиққанидан кейин гурухга М. Филанович раҳбар этиб тайинланади. Илмий гуруҳнинг тадқиқотлари Тошкент ҳудудидаги деярли барча археологик ёдгорликларни қамраб олди. 1979 йилда гурух доимий ишлайдиган Тошкент археологик экспедицияси сифатида қайта ташкил этилди.

Маргарита Ивановна қадими шаҳарлар, жумладан, Марв, Сармаканд ва айниқса, Тошкентнинг



Маргарита Филанович
1937 йил Ленинградда туғилган. Ленинград қамалидан сўнг Новосибирск ва Белоруссияда яшаган. 1948 йилда Тошкентга кўчиб келган. 1959 йилда Ўрта Осиё давлат университетининг тарих факультетини имтиёзли туттаган. 1974 йилда илмий раҳбари Михаил Массон тавсиясига кўра, тарих фанлари номзоди илмий дарражасини олиш учун диссертация ёқлаган.

Олима раҳбарлигидаги илмий тадқиқот натижалари ЮНЕСКО томонидан қўллаб-қувватланган ва Тошкент шаҳрининг 2200 йиллик юбилеи нишонлашига асос бўлган.

Ҳозирги кунда у ЎЗР ФА Археология институтида фаолият кўрсатиш билан бир қаторда, Тошкент археология экспедициясига раҳбарлик қилиб, қадими харобаларни ўрганишда давом этмоқда.

тарихини ўрганишга катта ҳисса қўшган. Унинг раҳбарлигига олиб борилган кенг миқёсдаги археологик қазилма ишлари ва илмий тадқиқотлар натижасида Тошкент воҳасида ривожланиш жараёнларининг янги қирралари очилган. Ҳусусан, ўтроқ маданиятнинг пайдо бўлиши эрамиздан аввалги I минг йилликка, шаҳар цивилизацияси эса эрамизнинг биринчи асрларига тўғри келиши, натижада Тошкент шаҳрининг ўши 2200 йил эканлиги илк бор асосланди. Бунда М.Филановичнинг ҳиссаси катта әди.

М. Филановичнинг 200 дан ортиқ илмий ишлари ва 10 дан ошиқ монографияси чоп этилган. Улардан 50 дан ортиги 11 та хорижий давлатда, жумладан, Франция, Германия, Корея, Россия илмий журналлари ва тўпламларида нашр қилинган. 87 ўшни қаршилаган қаҳрамонимиз ҳамон Тошкент шаҳрининг тарихини ўрганишда давом этиб, фаол ишлаб келмоқда. Фан ютуқларини нафақат республикамиизда, балки хорижий мамлакатларда тарғиб қилмоқда. Жумладан, профессор сифатида Франция олийгоҳларида француз тилида бир неча маротаба мъаруза қиласди.

М. Филановичнинг олима сифатида олиб борган илмий изланишлари ҳамда тарихимизнинг очилмаган қирраларини кашф қилишга қўшган

ҳиссаси учун давлатимиз ҳамда чет мамлакатлар томонидан берилган бир қатор орден ва медаллар кўксини безаб турибди. Улар орасида давлатимиз томонидан берилган «Шуҳрат» медали ва «Дўстлик» ордени унга алоҳида фурур ва ифтихор бағишишади.

– Ўзбекистонга келганимга 76 йил тўлибди, – дейди Маргарита Филанович. – Мен бу юртни ўз Ватаним деб биламан. Бу ерда қадимшунос-тарихчи бўлиб етишдим, яхши устозлар, дўстлар, ёру биродарлар ортиридим. 2019 йили Ленинград қамали тугатилишининг 75 йиллиги муносабати билан Санкт-Петербургда дунёнинг юздан ортиқ мамлакатларига тарқаб кетган болаларнинг учрашуви ташкил этилганди. Ўзбекистондан фақатгина бир ўзим вакил бўлиб бордим. Биз жуда кам қолган, кексайган «болалар» билан қишининг совуқ кунлари, уруш азоблари ҳақида кўзимизга ёш олиб узоқ сұхбатлашдик. Шуни айтишим керакки, ҳеч бир давлатда уруш қатнашчилари ва урушни бошидан кечирган инсонларга Ўзбекистондаги каби меҳр, эътибор ва ғамхўрлик кўрсатилмаган экан. Мен шу юртнинг фарзанди бўлганлигидан мамнунман ва Ўзбекистон Ватаним дея ғуруланиб юраман!

М. Филанович табаррук ёшда бўлса-да, тетик ва бардам. Бунинг боиси ўзи ёқтирган касбда фаолият юритиши баробарида, спорт билан фаол шугуланиши бўлса керак. У ёшлик чоғларида от спорти билан шугулланган, ҳатто 1-тоифага эга бўлган, шунингдек, стол тениси унинг севимли машгулоти. Олиманнинг яна бир севимли машгулоти гулчиликдир. Ўзи яшайдиган кўп қаватли уйнинг ҳовлисида бир қарич ҳам бўш ерини кўрмайсиз. Атроф ям-яшил дараҳтлар ҳамда ёқимли ифор таратиб турган гуллар билан бурканган.

Маргарита Филанович олима бўлиш билан бир қаторда, матонатли ва бардоши тоғларга тенг, зуваласи пишиқ аёлдир. Ўзек йигити Мирзәэргаш Юлдошевга турмушга чиқди. Қаҳрамонимизнинг умр йўлдоши бир муддат ички ишлар органларида фаолият юритган, кейинги фаолияти журналистика ҳамда фотомухбирлик билан боғлиқ бўлиб, 1992 йилда вафот этган.

Уларнинг икки нафар ўғли бўлиб, бири ёшлигида вафот этган. Иккинчи ўғли Кирилл онасининг изидан кетди. У ҳам тарихчи, ҳозирда пойтахтимиздаги мактабларнинг бирида шу фандан дарс бериб келмоқда. Бирин-кетин яқинларидан айрилиши, турмушнинг бошқа зарбалари олиманинг қаддини буқмади. Чунки у доим илм билан машғул. Шунингдек, унинг ёнида касбининг давомчилари бўлган кўплаб шогирдлари бор. Маргарита Филанович ёқсан машъала ҳали узоқ шула таратиб, илм аҳли учун йўлчи юлдуз бўлажак.

Сарвар СОБИРОВ,
ӯз мухбири.

МУЖЕСТВО – ГОРДОСТЬ И ЧЕСТЬ НАЦИИ



Тамара Петровна Циглинцева, родившаяся 22 августа 1934 года в Ленинграде. Тамара и ее семья пережили страшные дни блокадного Ленинграда, сталкиваясь с голодом и потерей близких. Они были освобождены из блокады лишь в 1945 году.

В возрасте 7 лет Тамара переехала в Ташкент, где получила образование и начала трудиться. Несмотря на тяжелые испытания, Тамара проявила необыкновенную силу духа и усердие в учебе и работе. Ее усилия были отмечены многочисленными наградами за выдающиеся достижения. В своей жизни она всегда помнила трудности прошлого и ценила каждую победу. Тамара Петровна стала ярким примером силы человеческого духа. Ее история вдохновляет многих людей и напоминает о важности силы воли и настойчивости.

Министр внутренних дел генерал-лейтенант П. Бобохонов посетил Тамару Петровну, где передал поздравление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева и денежную награду.

Затем руководство МВД направилось к блокадницам Марии Сергеевне Комаровой и Тамаре Михайловне Соколовой. Им также были зачитаны поздравления Президента Узбекистана и переданы денежные подарки. Встреча с участниками блокады была не только символом признания их героизма, но и актом благодарности за выносливость и силу духа. Руководство МВД выразило искреннюю признательность всем, кто внес свой вклад в сохранение исторической памяти и достоинство поколений.

Ветераны в строю

Ферганская область

Майор в отставке Эминжон Обидов уже два десятка лет на заслуженном отдыхе, но продолжает вносить достойный вклад в обеспечение спокойствия, профилактику преступности, воспитание молодых сотрудников в Риштанском районе. Вместе с супругой, Угилой Обидовой, воспитали четверых детей. Имеют десять внуков и правнука.

Ветеран является представителем целой династии, посвятившей себя служению во имя право-порядка. Его старшие братья, Нумонжон и Урмонжон Зохидовы, долгое время с честью выполняли служебный долг, сейчас на пенсии.



– Наши родители были простыми рабочими, давшими нам хорошее воспитание и образование. Три брата выбрали эту сферу, основав династию сотрудников органов внутренних дел, – с гордостью говорит Э. Обидов. – Теперь в профессии наши дети. Так, сын брата, подполковник Сайёд-

Юные дарования

Хорезмская область

Учащаяся первого курса Хорезмского академического лицея МВД Азиза Салимова служит примером в учебе и общественной жизни. В ноябре прошлого года на областном этапе предметной олимпиады по русскому языку она заняла третье место.

Овладеть языком Пушкина ей помогает чтение художественной литературы. Предпочтение лицеистка отдает произведениям классиков. В свободное от учебы время Азиза занимается легкой атлетикой. На постоянной основе выступает в различных соревнованиях, занимает призовые места. За отличную учебу, успехи в спорте, активное участие в общественной жизни она удостоилась звания младшего сержанта лицея.

– У нас созданы необходимые условия для получения знаний, занятий спортом, проявления других дарований, – говорит заместитель директора лицея подполковник Бехзодбек Курёзов. – Согласно утвержденному плану еженедельно проводим спортивные состязания, организовываем духовно-просветительские мероприятия. Увлекательно и бескомпромиссно проходят военизированные спортивные игры «Орлята», «Юный спасатель», «Юный пожарник», «Юный страж порядка», «Последователи Джалолиддина».

Подобная подготовка служит базой для успешного участия лицеистов в разных соревнованиях, конкурсах. Учащиеся достойно отстаивают честь образовательного учреждения. В их числе особо выделяется Азиза Салимова.

Недавно она успешно выступила в военно-спортивном турнире «Последователи Джалолиддина» в рамках «Олимпиады пяти инициатив», приуроченной к 9 мая – Дню памяти и почестей.



Начинал свой путь в 1979 году пожарным специализированного пожарного отряда Риштанского района. После занимал разные ответственные должности.

С 2015 года председатель Совета ветеранов ОВД, а с 2023 года он является советником начальника Риштанского РОВД.

– Читаю периодику, поддерживаю связь с прессой, часто публикуюсь на страницах газет и журналов, – говорит ветеран. – С момента начала службы газета «Postda-На посту» стала для меня близким другом. Да и сейчас люблю знакомить внуков с интересными статьями.

Эминжон Обидов собрал богатый материал о коллегах, работавших в системе в годы Второй мировой войны и в последующий период. Эти материалы включены в книгу-альбом «На службе народа», изданный Ферганским областным УВД. Неутомимый ветеран собирает сведения для книги о славных представителях сферы, трудившихся в Риштанском РОВД, в том числе в отделе, где работал и сам.

**Абдуносит СИДИКОВ,
соб. корр.**

ЖАСОРАТ – МИЛЛАТ ФУРУРИ ВА ИФТИХОРИ

Хотира ва қадрлаш куни ҳамда Иккинчи жаҳон урушида фашизм устидан қозонилган ғалабанинг 79 йиллиги бу йил мамлакатимизда шу шиор остида нишонланмоқда.

Байрам муносабати билан ғалабага муносиб ҳисса қўшган уруш ва меҳнат фронти фахрийларини ижтимоий муҳофаза қилиш ва моддий рафбатлантириш, уларнинг турмуш шароитини яхшилаш борасида

кенг кўламли ишлар амалга оширилди. Таълим мусассасалари, маҳаллаларда кекса авлод вакиллари билан учрашувлар, маданий-маърифий тадбирлар ўтказилмоқда.

Айни кунларда уруш ва меҳнат фронти қатнашчилари ҳолидан хабар олиниб, уларга байрам совғалари топширилмоқда.

ЖИЗЗАХ ВИЛОЯТИ



II Жаҳон уруши миллионлаб инсонлар қаторида 1926 йилда Украинада туғилган Вера Толпеванинг оиласига ҳам бемисл кулфатлар келтириди. 1943 йилда кўплаб миллатдошлари каби Веранинг оила аъзолари Германияга олиб кетилиб, оғир меҳнатга жалб қилинди.

Не баҳтки, Вера қийинчиликларни енгишга ўзида куч топа олди ва 1945 йилда фашизм устидан ғалаба қозонилгач,

юритига қайтишга муваффақ бўлди. Сўнг очликдан қочиб, Қозогистонга келди. Ўтган асрнинг 50-йилларида Мирзачўлга келиб, бўёқчи ва пардозчи сифатида вилоятдаги ўнлаб биноларнинг қурилишида иштирок этди. Оила қурди, уч фарзандни улғайтириди.

Шу тарзда Ўзбекистон унинг ватанинга айланди, ҳалол меҳнати билан эл-юрт ҳурматини қозонди.

ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ

«Нуроний» жамғармаси, хукуқ-тартибот идоралари, давлат ва жамоат ташкилотлари вакиллари, ҳарбийлар ва фаол ёшлар Қамаши туманида истиқомат қилаётган Иккинчи жаҳон уруши қатнашчиси Рўзибой Сатторов хонадонига ташриф буюришиди.

Фахрийга Президентимиз табриги ва пул мукофоти топширилди.

100 ёшдан ошган Рўзибой ота сухбат чоғида уруш ва меҳнат фахрийларига кўрсатилаётган ғамхўрлик учун миннатдорлик билдириб, юртимизда олиб борилаётган эзгу ишлар баракали бўлишини тилаб, дуога қўл очди.



САМАРҚАНД ВИЛОЯТИ



Самарқанд вилоятининг Ургут туманида истиқомат қилаётган Иккинчи жаҳон уруши қатнашчиси 100 ёшдан ошаётган отахон Бўрон Гадоев тинчликни қадрият, деб билади ва бошқаларни ҳам шунга ундаиди.

Вилоят ИИБ бошлиғи ва туман ҳокими, Мудофаа ишлари бошқармаси, Миллий гвардия, Республика Маънавият ва маърифат маркази туман бўлинмаси каби бошқа ташкилотлар вакиллари уруш қатнашчисининг хонадонида бўлиб, давлатимиз раҳбарининг табригини ва пул мукофотини тантанали равишда топширди.

ГЕРОЙ ТРУДОВОГО ФРОНТА

Вторая мировая война унесла жизни десятков миллионов людей, стала самой разрушительной в истории человечества. Общая победа ковалась и в тылу. Наравне со взрослыми тяготы и лишения сороковых годов прошлого столетия испытали и дети войны. В их числе жительница Каракалпакстана Раушан Самарканова.



Она родилась в 1930 году в ауле № 5 колхоза «Кизил дехкон» Кунградского района. Когда грянула война Р. Самарканова училась в начальных классах. Мужчины аула были мобилизованы. Хотя ее отец по состоянию здоровья был освобожден от призыва в армию, позже, в 1942 году, отправлен на Челябинский тракторный завод, позже работал там же в шахте. Дома остались Раушан с мамой и братом.

— Учились в первую смену, после двух-трех часов нас отпускали, чтобы привлечь к сельскохозяйственным работам. Девиз «Все для фронта, все для победы» заставлял работать не покладая рук, — делится Раушан Самарканова.

Местная река в весенне-половодье выходила из своих берегов. Школьников привлекали для сооружения дамбы из песка, глины и гравия. Мы выстраивались в длинную цепочку очереди. Каждому в подол платья накладывали по лопате грунта. Большее количество было для нас просто неподъемным. Мы должны были подниматься на вершину дамбы исыпать содержимое.

И все же в 1943 году часть территории района, в том числе и наш аул, была затоплена. Жители переселились в другое место. Для обустройства там не было ни времени, ни средств. В течение двух лет ютились в погребе. Только когда вернулся отец и построил дом, мы перебрались в него.

— В 1944 году случилась другая напасть — нашествие саранчи стало угрожать урожаю. Учредили ночное дежурство на полевом стане, чтобы охранять посевы. Было в то время движение стахановцев. Так называли передовиков производства и ударников труда. Победителей награждали грамотами и отрезом для платья или продуктами — самыми ценными подарками на тот момент. В подростковом возрасте несколько раз удостаивалась подобной чести. Вот в таких условиях проходило наше детство. Сейчас даже не знаю, как нам удалось пережить то время, — вспоминает Раушан опа со слезами на глазах. — Думаю, крепкая вера в торжество спра-



ведливости, надежда на светлое будущее питали наши силы.

В 1947 году Раушан вышла замуж за Кудайбергена Муминова. Через год супруга призвали в армию, он проходил службу в Кёнигсберге (ныне Калининград). Затем его направили в военное училище, а после на работу в Ташкент, далее в Чимбайский районный отдел НКВД.

К. Муминов был среди тех, кто создавал на практике службу по пожарной безопасности Республики Каракалпакстан. В 1962-1983 годах работал заместителем начальника Управления пожарной безопасности, вышел на пенсию в звании подполковника.

Заслуги Раушан Самаркановой в годы войны были высоко оценены правительством. В 1994 году она удостоилась медали «Шухрат».

Супруги вырастили и воспитали троих детей. Старшая Роза работала в сфере торговли. Жаксибийке трудилась в дошкольном образовательном учреждении при МВД. Сын Сабит пошел по стопам отца. На пенсию вышел в звании подполковника.

Героиня нашего рассказа ныне является любимицей более двадцати внуков и правнуоков.

**Азамат ПИРНИЯЗОВ,
соб. корр.**




INSON QADRI UCHUN
FARG'ONA VILOYATI

Farg'ona shahar «Yangiyo'l» mahallasida ichki ishlар organlari xodimlari uchun zamonaviy turarjoy binosi bунyod etildi. Ushbu xonadonlar uy-joyga ehtiyoji bor xodimlarga tayyor holda, 20 yil davomida imtiyozli narxlarda to'lash sharti bilan taqdim etildi.



Viloyat IIB rahbarlari hamda faxriylar xonadonlarda yaratilgan shart-sharoitlarni ham ko'zdan kechirdilar.

– Ko'pdan beri o'zimizning shinamgina uyimiz bo'lishini niyat qilib yurgandik, – deydi viloyat IIB TQX JQB bo'linma boshlig'i, podpolkovnik Mo'minjon Boymatov. – Mana, niyatimizga yetib, uch xonali xonadon sohibiga aylандик. Bugun turmush o'rтog'im va farzandlarim bilan yangi uyga ko'chib keldik. Atrofimizda maktab, bog'cha, poliklinika joylashgan, hamma sharoit yetarli. Endi qayerga xizmat topshirig'i bilan ketsam ham, oilamdan ko'nglim to'q bo'ladi. Vatanimizga, xalqimizga yanada sadoqat bilan xizmat qilishda davom etaman.

O'z muxbirimiz.

JIZZAX VILOYATI

G'allaorol tumanining «Samarqand» mahallasida yashovchi Abdunabi Xolbo'tayev ichki ishlар organiga uyini ta'mirlashda yordam so'rab murojaat qildi. Ushbu murojaat asosida 8 million so'mlik yordam ko'rsatildi. Yana ham aniqrog'i, 3-sektor ishchi guruhi ko'magida fuqaro 25 dona strapila, 500 metr reyka hamda 40 dona shifer bilan ta'minlandi.



– Joriy yilning o'tgan davrida 2673 ta yozma va og'zaki murojaatda ko'tarilgan muammolarining 1516 tasiga ijobiy yechim topildi, – deydi Jizzax viloyati IIB Tashkiliy boshqarmasi murojaatlar bilan ishlash guruhi katta inspektori, mayor Furqat Jo'rayev.
– Fuqarolar boshqarmamizga yozma, og'zaki, uyali aloqa vositalari, elektron manzil yoki pochta orqali murojaat qilishadi. Murojaatni to'liq, xolisona va o'z vaqtida o'rganish, ko'tarilgan masalaga qonunan yechim topish, umid bilan kelgan har fuqaroni rozi qilish uchun barcha imkoniyatlar ishga solinmoqda.

Darhaqiqat, ayni maqsadda ichki ishlар organlari mas'ullarining sayyor qabullari uyuştirilyapti. Zaruratga ko'ra, arizachiga murojaat ijrosi yuzasidan xabarnomalar yo'llanayotir.

Aytish joizki, ichki ishlар organlari qilingan har qanday murojaat sohaning murojaatlar bilan ishslash bo'linmalarida ro'yxatga olinadi, unda ko'tarilgan muammo va masalalarni hal qilish muddatlari belgilanadi va qat'iy nazorat ostiga olinadi. Xuddi shunday, mazkur masalaga shahar va tuman ichki ishlар bo'limlarida 2 nafar rahbar xodim mas'ul etib biriktirilgan.

O'z muxbirimiz.

SURXONDARYO VILOYATI


Surxondaryo viloyati IIB boshlig'i o'rribbosari, podpolkovnik Sherzod Shodiyev boshchiligidagi soha faxriylarining holidan xabar olindi.

Tizimda uzoq yillar samarali faoliyat olib borgan faxriylar bilan dildan qilingan suhbatlar asnosida, bayram sovg'alari hamda Ichki ishlар vaziri maslahatchisi, general-polkovnik Zokirjon Almatov qalamiga mansub «Unutilmas xotiralarim» va IIV Birlashgan tahririyati tomonidan nashr etilgan «Faxriylar – faxrimiz» nomli kitoblari ularshildi. Shuningdek, iste'fodagi mayor Abduhakim Navro'zov tavalludining 60 yillik yubileyi munosabati bilan Ichki ishlар vazirligi Faxriylar kengashi hamda viloyat IIBning faxriy yorliq hamda esdalik sovg'alari topshirildi.

Bayram bahonasida xabar olingan soha faxriylarining muammo va takliflari o'rganilib, ijobiy hal etish choralar ko'rildi.

O'z muxbirimiz.

TOSHKENT SHAHRI

Bayram munosabati bilan uzoq yillar sohada samarali xizmat olib borgan faxriylar va yosh xodimlar ishtirokida «Zakovat» intellektual o'yini bo'yicha ilk bora «Ichki ishlар vaziri kubogi» musobaqasi o'tkazildi.

Hamkorlikda tashkil etilgan ushbu musobaqada 51 ta jamoada 310 nafardan ortiq faxriylar hamda yosh xodimlar ishtirok etib, 2 ta tur savollari o'ynaldi.



Yakuniy natijalariga ko'ra, faxrli birinchi o'rın IIV Akademiyasining «Uyg'onish», ikkinchi o'rın IIV Ma'nnaviy-ma'rifiy ishlар va kadrlar bilan ta'minlash departamentining «Uch avlod», uchinchi o'rın IIV markaziy apparatining «Sohibqiron» terma jamoalariga nasib etdi.

Shuningdek, «Eng yosh bilimdon» nominatsiyasi bo'yicha IIV Ixtisoslashtirilgan maktab-internatining 5-sinf o'quvchisi Muhammad Ro'ziyev, «Eng yoshi ulug' bilimdon» nominatsiyasi bo'yicha Samarqand viloyati IIB jamoasi a'zosi, 82 yoshli iste'fodagi mayor Nuriddin Najmiddinov g'oliblikni qo'lga kiritdi. G'oliblar va faol ishtirokchilar qimmatbaho sovg'a hamda diplomlar bilan taqdirlandi.

O'z muxbirimiz.

МЕХР ТИЛСИМИ

ЯРАЛАНГАН «ЛЮТИЙ»НИНГ САДОҚАТИ

Садоқати зоҳир

«Хатико» номли ит ҳақидаги фильмни кўпчилик кўрган. Айни пайтда итнинг ҳар куни эгасини вокзалга кузатиб қўйиб, унинг қайтиб келишига интизор бўлган саҳналар кўз олдингиздан ўтаётгандир. Ўшанда ҳам, ҳозир ҳам эгасининг бевақт вафотидан кейин йиллар давомида вокзал майдонида уни зориқиб кутган вафодор «Хатико»-нинг чексиз садоқатидан ҳайратланганингиз бор гап. Бироқ бизнинг мақоламиз бошқа бир ит садоқати ҳақида...

2000 йилнинг 28 август санаси. Бир гурӯҳ террорчилар Тошкент вилояти Бўstonliq туманининг тоғли худудларига суқилиб кириб келганда, мард ўғлонларимиз уларга қарши жанг олиб боради. Улар орасида ўзининг «Лютий» лақабли хизмат ити билан биргалиқда Чирчиқ шаҳар ИИБ ЖТСБ кичик инспектор-кинологи, сержант Эрфан Эмираджиев ҳам бор эди.

Куролланган жиноятчиларни кўлга олишда иштирок этган махсус гурӯҳ аъзоларининг бир қисми Бўstonliq туманидаги тоғли худудда яшириниб, ҳушёрлик билан атрофни кузатарди. Туйқус Эрфанинг хизмат ити ниманидир сезгандек олдинга югурди. Сержант унинг ортидан шошилди. Тезкор гурӯҳ аъзолари ҳам жойидан қўзғалди. Кинолог итини

етаклаганча анча масофани босиб ўтди. Ниҳоят сеғир жонивор уни дараҳтлар қуюқ ўсган томонга бошлаб келди. Демак, жангарилар шу ерга беркинган экан-да, деган хуласага келган кинологнинг тахминлари тўғри бўлиб чиқди.

Жиноятчилар паналаган жойи фош бўлгани, ортиқ яширинишдан фойда йўқлигини сезгач, дархол ўт оча бошлашди. Эрфан «Лютий»ни етаклаб, тошлар ортига ўтди ва ҳамкаслари ўқлар ёмғири остида қолиб кетмаслиги учун зудлик билан ишга киришди. Душман эса уларни аёвсиз ўқса тутарди. Тоғу тошлар орасида юз берган аёвсиз жангда Эрфан ва унинг хизмат ити оғир яраланди. Лекин кўрқмас ва жасур ўғлон ўлими олдиндан сафдошларини жиноятчилар яширинган жой ҳақида огоҳлантириб, уларнинг ҳаётини сақлаб қолди.

Қаҳрамонларча ҳалок бўлган Эрфанин Чирчиқ шаҳрига олиб кетишади. Бироқ «Лютий» воқеа жойида йўқ эди. Уни тополмаган тезкор гурӯҳ аъзолари ортга қайтишади... Орадан бир неча кун ўтади. Вертолётда махсус отряд ходимлари тоғ худудини кузатиб юрганида қора рангли итни кўриб қолишади. Кейин бу ҳақда ички ишлар организма хабар беришади. Таҳликали вазиятдан келиб чиқиб тузилган тезкор штаб раҳбарияти томонидан шакллантирилган махсус гурӯҳ



тоғ худудига йўналтирилади. Улар орасида ўшанда Тошкент вилояти ИИБ қарашли Кинология хизмати қидирув ва одорология бўлими бошлиғи, ҳозирда истеъфодаги майор Асан Туропов ҳамда кинолог, лейтенант Олег Ханджян бор эди.

Уларнинг зиммасига, биринчи навбатда, қолган жангариларни йўқ қилиш, қочишига ултурган бўлса, қаерга кетганлигини аниқлаш ва итни топиш вазифаси юкланди. Вертолётда етиб келган махсус гурӯҳ жангарилар батамом йўқ қилинганига амин бўлгач, итни қидиришади ва Эрфан ҳалок бўлган жойга келишганда, шу ерда итни учратишади. Куролланган махсус гурӯхни кўрган ит шу заҳоти қочишига тушади. Лекин Асанни олдиндан таниган «Лютий» унинг бағрига отиласди.

«Лютий»нинг тириклиги, лекин оғир жароҳатлангани тўғрисида ўша пайтдаги Ичкি ишлар вазири, генерал-полковник Зокиржон Алматовга ахборот берилади. Уни даволаш чоралари олиб борилиб, Кинология питомнигидаги сақлаш бўйича олинган топшириқ асосида «Лютий» шу ерда қолади. Унинг аҳволи ва кўриниши бўйича тасвирга туширилган видеолавҳа вазирга юборилади.



Суратда: сержант Э. Эмираджиев (ўнгдан иккинчи) «Лютий» лақабли хизмат ити билан.

Ikkinchı jahon urushi fakt va raqamlarda

Ikkinchı jahon urushida 6 mingdan ziyod maxsus tayyorlangan itlar ham faol ishtirok etgan. Urush davomida sanitar itlar jang maydonidagi yarador hushidan ketgan bo`lsa, uning yuzini yalagan. To hushiga kelmaguncha yalashda davom etaverGAN. Shunday qilib, urush davrida sanitar itlar jang maydonidan 7 ming ga yaqin yarador ofitser va askarlarni olib chiqqan. Sapyor itlar esa uch yuzga yaqin yirik shaharlarni minadan tozalashda ishtirok etgan.



ёшланди. Шунча йил кинология йўналишида хизмат қилиб, итнинг бу қадар мунгли ва таъсирли тарзда кўз ёш тўкканини кўрмаганман. Ҳеч биримиз чираб тура олмадик. Барчанинг кўзлари намланди. Сўнг унга тезда овқат бердик. У икки ҳафта мобайнида факат ўт-ўлан еб жон сақлаган экан. Буни биз унинг ахлати ям-яшил бўлиб турганидан билдик. Устига-устак, оғир яраланиб, ўқ теккан жойи қуртлаб кетган экан. Мен тезда шур сув тайёрлаб, унинг ярасига суртиб, қуртлардан тозаладим.

Шу яқин атрофда уни кўрган одамларнинг айтишича, у ҳар куни эгаси вафот этган жойга келиб мунгли овозда увуллар ва бироз шу ерда туриб, яна ортига қайтиб кетар экан.

«Лютий»ни ветеринарларга кўрсатишганида, ўқ парчаси унинг баданига чукур кириб кетганлиги, жарроҳлик амалиёти ўтказишнинг имконсизлигини, агар шундай қилишса, ундан айрилиб қолиш мумкинлигини билдиришган. Шундан сўнг, унинг ярасига малҳам суртиб даволашган. Аммо олинмаган ўқ парчаси ўз таъсирини кўрсатарди. Жонивор питомнига келтирилганидан сўнг, дастлабки уч кун давомида дарвоза томон термулиб, худдики Эрфан кириб келиб қолиши мумкиндек тикилиб ётарди. Ҳаттоқи унга берилган овқатдан ҳам деярли емас эди. Тузалгач, яна икки йил кинолог ходимлар билан хизмат олиб борди. Бир неча бор воқеа жойига чиқиб, жиноятларнинг «иссиқ изида» очишида иштирок этди. 2003 йилнинг охирига бориб, унинг ҳам пайманаси тўлди. Ходимлар унинг хурматини жойига қўйиб дафн қилишди.

Тоғли худудга бостириб кирган куролли гурӯҳ аъзоларини йўқ қилишда оғир яраланиб, қаҳрамонларча ҳалок бўлган Эрфан Эмираджиев вафотидан кейин Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонига биноан, «Жасорат» медали билан тақдирланган. Бунда Эрфан билан ёнма-ён туриб хизмат қилган, душман кўзига тик бокиб, улар билан қаҳрамонларча олишган «Лютий»нинг ҳам алоҳида ўрни бор.

Эрфан ва унинг садоқатли дўстти «Лютий» юртимиз сарҳадларига суқилиб кирган ёвга кўксини қалқон қилгани, ҳалқимиз тинчлиги ҳамда осойишталигини таъминлаш йўлида мардлик кўрсатгани барчамизнинг хотирамизда абадий қолади.

**Сарвар СОБИРОВ,
ўз муҳбиришимиз.**

MUZEYLAR – MOZIYDAN SO‘ZLAR

MUSEYONDAN BOSHLANGAN EDI...

O‘tgan asrning 80-yillarida O‘zbekistonda 33 ta muzey mavjud bo‘lgan. 2000-yilda muzeylar soni 88 taga, 2010-yilga kelib esa 105 taga yetgan. Bugungi kunda O‘zbekistonda 134 ta muzey faoliyat ko‘rsatadi. Ularning 17 tasi tarix, 27 tasi o‘lkashunoslik, 10 tasi badiiy, 24 tasi memorial, 8 tasi adabiyot, 4 tasi aniq fanlar va 44 tasi boshqa sohalarga bag‘ishlangan muzeylar hisoblanadi. Ushbu muzeylarda o‘zbek va jahon xalqlari tarixi va madaniyatiga doir jami 2.158.400 ta turli eksponatlar saqlanadi.

Dastlabki muzeylar (yunoncha «museyon») bundan ikki yarim ming yil ilgari, antik davrda Yunonistonda vujudga kelgan. Bu qadim yurtda museyon deb muzalar, ya’ni yunon ma‘budalari sha’niga tabiat qo‘ynida – tog‘ etaklari, daryo va ko‘l bo‘ylarida, bog‘-u rog‘larda barpo etilgan maskanlarga aytilgan. Museyonlar ibodatxona vazifasini ham o‘tagan. Ushbu maskanlar da ko‘pincha shoirlar, faylasuflar, san‘at ustalari yig‘ilishgan, go‘zal ma‘budalar haykallari ularga ilhom bag‘ishlagan.

Vaqt o‘tishi bilan museyonlar yo‘q bo‘lib ketdi. «Museyon» atamasi esa «muzey» so‘zi bilan almashdi va XVI asrdan boshlab, G‘arbiy Yevropada noyob buyumlar, san‘at asarlari saqlanadigan joylarga nisbatan aytila boshlandi. Oldinlari faqat ma‘lum bir shaxslar uchun xizmat qilgan muzeylar asta-sekin ommaviylashib bordi va jamiyat madaniyatining ajralmas bir qismiga aylandi.

XV–XVI asrlarda Fransiya, Angliya, Germaniyada muzeylar tashkil etildi. Londondagi Britaniya muzeyi (1753), Parijdagi Luvr muzeyi (1793) g‘arbiy Yevropadagi ilk ommaviy muzeylardir. Jahondagi eng yirik muzeylar asosan XIX asrda paydo bo‘ldi. Madriddagi Prado muzeyi (1819), Moskvadagi Tarix muzeyi (1873), Sankt-Peterburgdagi Ermitaj (1852), Nyu-Yorkdagi Metropolitan muzeyi (1870) shular jumlasidan.

O‘ZBEKISTONDA MUZEYLAR

Ba‘zi manbalarda mam-lakatimizda ilk muzey rasman 1876-yilda tashkil etilgan Toshkent muzeyi (hozirgi O‘zbekiston tarixi muzeyi) deb hisoblanadi. Vaholanki hozirgi muzeylarga xos kolleksiyalar, xususan noyob qo‘lyozmalar, miniaturalar va boshqa san‘at asarlarini to‘plash Markazi Osiyoda ilk Uyg‘onish (Renessans) davriga (IX–X asrlar) borib taqaladi. Buxorodagi Somoniylar kutubxonasi, Mahmud G‘aznaviyning saroy kutubxonasi, Xorazmdagi Ma‘mun akademiyasi o‘z davrining eng

noyob kitoblarini (shu jumladan, arxiv hujjatlarini) to‘plagan, bu-tun Sharqqa dong‘i ketgan ilmiy-madaniy markazlar bo‘lgan.

XIV asr oxirida Sohibqiron Amir Temur tomonidan yagona markazlashgan davlat tuzilishi va Samarqandning poytaxt qilinishi bu yerda katta madaniy boyliklarning to‘planishiga imkon berdi. Amir Temur o‘z sultanati poytaxtiga qadimiy qo‘lyozmalar, hukmdorlarga tegishli yozishma va elchilik hujjatlari, xususan, musulmon dunyosining muqaddas kitobi bo‘lmishi «Usmon Mushafi»ning (VII asr) asl nusxasini keltirdi. Dunyoga mashhur Temur kutubxonasini barpo etdi.



Uning sevikli nabirasi Mirzo Ulug‘bek ushu kutubxonani yana-da boyitdi. Temuriyoda Shohruuning o‘g‘li shahzoda Boysung‘ur mirzo ham Hirotda o‘z davrining eng boy saroy kutubxonalaridan birini barpo etdi. Bu yerda ko‘plab mashhur olimlar, xattotlar, nafis surat ustalari, rassomlar, zarhalchilar, muqovachilar ijod qilgan. Kutubxonada faqatgina qo‘lyozmalar to‘planib, ko‘chirilmasdan, matnshunoslik tadqiqotlari ham olib borilar edi. 1442-yil ushu kutubxonada Firdavsiyning «Shohnoma» asari to‘la matnda ko‘chirib yozildi. Alisher Navoiyning juda katta nodir qo‘lyozmalarga boy shaxsiy kutubxonasi bo‘lganligi ma‘lum. Bu kutubxonadan tarixchi Xondamir, musavvir Behzod va boshqa olim-u foziyalar foydalangan.

Afsuski, Rossiya imperiyasining yurtimizga bosqini davrida Qo‘qon, Toshkent, Xiva va Buxoro shaharlaridagi masjid-u madrasalar ayovsiz talanib, ulardagagi, shuningdek, mahalliy ziyolilarning shaxsiy kolleksiyalaridagi minglab noyob tarixiy hujjatlar, qo‘lyozmalar, kitob va boshqa osori atiqalar Rossiya muzeylariga olib ketilgan. Jumladan, General-gubernator Fon Kaufman farmoniga asosan Samarqand istilosidan so‘ng qo‘iga kiritilgan xalifa Usmon Qur‘oni sharqshunos A.L.Kun tashabbusi bilan Peterburg ommaviy kutubxonasiga jo‘natiladi.



yurtimizning asl tarixini emas, mustabid tuzum mafkurasiga xizmat qiladigan sun‘iy tarixni aks ettirgan edi. Birgina maqola-da bu mavzuni batafsil yoritish mushkul. Shuning uchun endi istiqlol davriga to‘xtalamiz.

MUSTAQILLIK YILLARIDA

Istiqlol yillarida respublika poytaxti, viloyat va tuman markazlarida tarixiy yo‘nalishdagi qator yangi muzeylar tashkil etildi, esklari ta‘mirlandi, muzeylarning ilmiy konsepsiysi milliy g‘oya asosida qayta tuzilib, ekspozitsiyalari tubdan yangilandi.

1996-yilda Sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Termiz arxeologiya muzeyi, Qatag‘on qurbanlari xotirasi muzeyi, Hazrati Imom majmuasidagi ixcham kitoblar muzeyi xalqimizning milliy o‘zligini anglashi, milliy g‘ururini tiklashi va ma‘naviyatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Ayniqsa, so‘nggi yillarda Qoraqpog‘iston Respublikasi poytaxti Nukus shahrida va viloyat markazlarida barpo etilgan Qatag‘on qurbanlari xotirasi muzeyining filiali, 2020-yilda poytaxtimizda Ikkinchijahon urushida fashizm ustidan qozonilgan G‘alabanining 75 yilligi arafasida foydalanishga topshirilgan G‘alaba majmuasidagi «Shonsharaf» muzeyi yurtimiz tarixining hali to‘liq o‘rganilmagan sahifalarini arxiv hujjatlari, noyob eksponatlar va zamonaviy ko‘rgazma vositalari orqali to‘laqonli yoritib berganligi bilan tashrif buyuruvchilarning qiziqishlariga sabab bo‘lmoqda.

Darhaqiqat, muzeylar moziydan so‘zlaydi. Zero, O‘zbekiston muzeylari o‘zining fondi, noyob eksponatlari bo‘yicha dunyoning aksariyat muzeylaridan aslo qolishmaydi.

**Elbek NORMO‘MINOV,
IV muzeyi boshlig‘i,
mayor.**

TARIXNING SARIQ SAHIFALARIDAN

O'ZBEKISTON ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDA



MAXSUS OPERATSIYA

Ta'kidlash joizki, urushning murakkab sharoitida jinoyatchilikka qarshi murosasiz kurash olib borilgan. O'zbekiston hududida sodir etilgan yirik jinoyatlardan biri Toshkent shahar militsiya xodimlari tomonidan 1944-yil 29-dekabrda fosh etildi. Jinoyat qidiruv bo'limi inspektorlarining tezkor tadbirlari natijasida 400 tonna non mahsulotlarini olishga mo'ljalangan qalbaki kartochkalarni ishlab chiqqagan va ulardan foydalangan jinoiy guruh ushlandi. Tergov ishlari jarayonida o'tkazilgan tintuvlar natijasida ulardan 12 million rubl naqd pul, 2100 ta oltin tanga va boshqa qimmatbaho buyumlar olingan. Ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlari isbotlanib, jinoiy guruhning barcha a'zolari oliy jazoga hukm qilingan.



G'AMXO'RLIK

Militsiya xodimlari tomonidan 1943-yilning 9 oyi davomida 9199 nafar qarovsiz va 8896 nafar boquvchisiz bolalar ro'yxatga olinib, ulardan 4959 nafari zavod va fabrika maktablari, bolalar uylari va ishga, 3663 nafari bolalar qabul punktlari va 148 tasi boshqa tashkilotlarga joylashtirilgan.



«QUROLSIZLANTIRISH»

Ma'lumotlarda ko'rsatilishicha, 1942-yilda O'rta Osiyoning bir qator shaharlari – Toshkent, Olma-ota, Frunze, Chimkentda uyushgan jinoyatchilik kuchayib, qasddan odam o'ldirish, bosqinchilik, tunash singari og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar Toshkent shahar Jinoyat qidiruv xodimlari tomonidan olib borilgan tezkor tadbirlar natijasida qisqa muddatda fosh etilgan. Toshkent shahri va uning atrofidagi hududlardan 102 nafar qurolli jinoyatchilar qo'lga olingan, ular orasida ayrimlari (jamiyat uchun xavfli deb topilganlari) oliy jazoga hukm qilingan.



Abror POYONOV tayyorladi.



www.postda.uz



t.me/postdaramsiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz

 IJTIMOIY HIMoya

OILAVIY O'RGANISHLAR SAMARASI

Oilasi tinch, xotirjam, xonadoni to'kis xodimning xizmat samaradorligi yuqori bo'ladi. Shu bois Qashqadaryo viloyati IIB Ma'naviy-ma'rifiy ishlari va kadrlar bilan ta'minlash xizmati tomonidan shaxsiy tarkibning xizmat, jismoniy va jangovar salohiyatini oshirish, kasbiy mahoratini yuksaltirish bilan birga, xodimlarning oilaviy sharoiti, turmush tarzini o'rganish ishlari ham jadal amalga oshirilmoqda. Bunda xodimning oilasida o'zini ruhiy-psixologik jihatdan tutishi, oila a'zolari va qo'ni-qo'shilari bilan munosabati, xizmatdan tashqari vaqtida qanday ish bilan mashg'ul bo'lishi, mahalla jamoat ishlaridagi ishtirokiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xodimlar bilan bog'liq yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy holatlarning oldini olish maqsadida ularning yashash tarzi o'rganilib, oila a'zolariga kasbning mas'uliyatli va sharafli jihatlari atroflicha tushuntirilmoqda. Xizmat mas'uliyatini tushungan holda har bir xo-

dim oilasi tomonidan qo'llab-quvvatlanishi lozimligi, bu kelgusida ularning xizmat faoliyatini samarali olib borishida katta turtki bo'lishi ta'kidlanyapti.

Eng asosiysi, o'rganishlar hamda yig'ilishlar davomida xodimlarning oila a'zolari taklif va muloha-



zalari ham tinglanadi. Aniqlangan muammolarni bartaraf etish choralar ko'rilmoxda. Jumladan, xodimlarning farzandlarini maktabgacha ta'lim tashkilotiga joylashtirish, ayrimlarining turmush o'rtoqlariga «Ishga marhamat» monomarkazlarida kasb-hunar o'rganish bo'yicha yo'llanma olishlarida amaliy yordam ko'rsatilmoqda.

Ayni paytda ham bu bora-dagi ishlar davom ettirilmoqda. Chunonchi, xodimlar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha turmush o'rtog'i yoki ota-onasiga viloyat IIB Tibbiyot bo'limi «Mingchinar» gospitaliga davolanishlari uchun yo'llanmalar, ayrimlariga boshqa tibbiyot muassasalarida

davolanish uchun pul mablag'i ajratilishi bo'yicha boshqarma MMI va KBTX ijtimoiy himoya guruhi tomonidan amaliy yordam ko'rsatilmoqda. Shu bilan birga, xizmatda va oila-turmush doirasidagi munosabatlarda ijobiy natijalarni qo'lga kiritgan xodimlarni rag'batlantirib borish masalasi ham diqqat markazida.

Albatta, bunday sa'y-harakatlar kelgusida shaxsiy tarkibning zimmasidagi sharafli va mas'uliyatli vazifalarni sidqidildan bajarishida, xodimlar o'rtasida turli noqonuniy, ko'ngilsiz holatlar ro'y berishining oldini olishda qo'l kelishi shubhasiz.

**Hamidulla XUDOYQULOV,
katta leytenant.
Qashqadaryo viloyati.**

«QIZIL» TOIFADAGI SHAHARCHADA

Jizzaxda viloyati IIB mas'ullarini «qizil» toifadagi fuqarolar yig'inlariga biriktirish yo'li bilan hududlarda kriminogen vaziyatni yaxshilashga qaratilgan samarali tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Yangiobod tumanining «Yangiobod» shaharcha fuqarolar yig'inida viloyat IIB huzuridagi Tergov boshqarmasi xodimlari milliy gvardiya hamda favqulodda vaziyatlar tizimi xodimlari bilan hamkorlikda savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalarini xabarlov tizimlariga ulash, eshil va derazalarni temir panjaralar bilan qoplash choralarini ko'rishmoqda.

O'z navbatida markaziy ko'cha 2 ta zamonaliv videokuzatuv kame-

ta'lim tashkiloti qarshisiga esa harakat xavfsizligini ta'minlash maqsadida yo'l belgilari o'rnatildi.

Bundan tashqari, «xonodonbay» o'rganish ishlari amalga oshirilib, bir qancha ehtiyojmandlarga oziq-ovqat mahsulotlari tarqatildi. Jinoyatlarining barvaqt oldini olish maqsadida muqaddam sudlangan, profilaktik hisobga olingan hamda probatsiya xizmati nazorati ostidagi shaxslarning muammolari aniqlanib, bartaraf qilish choralari ko'rileyotir.

Shuningdek, tashkilot va korxonalar hamda jamoat to'planadigan joylarda targ'ibot tadbirlari uyustirildi. O'g'rilik, firibgarlik hamda kiberjinoyatdan himoyalananish, yo'l harakati va yong'in xavfsizligi qoidalariiga rioya qilishga oid tushunchalar berilib, fuqarolar sergaklikka chaqirilmoqda.


**Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.
Jizzax viloyati.**



 Урок духовности и просвещения



МУЗЕИ – СОКРОВИЩЕ НАШЕЙ ПАМЯТИ



Еще в Древнем мире собирали и хранили предметы, не подлежащие ежедневному использованию. Коллекции эти принадлежали правителям, общинам, богатым людям. Древнегреческое слово «музей» означало «храм муз», т.е. богинь, являвшихся покровительницами отдельных видов искусств. Такое коллекционирование было характерно для самых различных регионов мира (Китай, Иран, Индия, Османская империя и др.).

Первый прототип современного музея был основан в Александрии под названием Мусейон в 290 году до н. э. В этом здании было огромное количество комнат, в одной из которых была знаменитая Александрийская библиотека.

В эпоху Возрождения именно в Италии XV-XVI вв. возникли музеи, которые назывались «студью». В Германии XVI в. музей именовался «кунсткамерой» или «вундеркамерой», во Франции «кабинетом», «статуарием» или «антикварием».

Первый прототип современного музея был основан в Александрии под названием Мусейон в 290 году до н. э. В этом здании было огромное количество комнат, в одной из которых была знаменитая Александрийская библиотека.

В эпоху Возрождения именно в Италии XV-XVI вв. возникли музеи, которые назывались «студью». В Германии XVI в. музей именовался «кунсткамерой» или «вундеркамерой», во Франции «кабинетом», «статуарием» или «антикварием».

Первый прототип современного музея был основан в Александрии под названием Мусейон в 290 году до н. э. В этом здании было огромное количество комнат, в одной из которых была знаменитая Александрийская библиотека.

В эпоху Возрождения именно в Италии XV-XVI вв. возникли музеи, которые назывались «студью». В Германии XVI в. музей именовался «кунсткамерой» или «вундеркамерой», во Франции «кабинетом», «статуарием» или «антикварием».

В Узбекистане невероятно широк ассортимент коллекций музеев, включая экспонаты из различных областей науки и культуры.



Первый в Европе археологический музей в закрытом помещении был создан в Венеции в 1523 г. В эпоху Просвещения появились первые публичные музеи. Одним из первых был Капитолийский музей в Риме, учрежденный в 1734 г.

В конце XVII-первой половине XIX в. возникла потребность выделить здание музея в особый тип строений. В 1793-1795 гг. в Париже были открыты Музей искусств во дворце Лувр, Музей естественной истории, Консерватория искусств и ремесла, Музей артиллерии.

МУЗЕИ УЗБЕКИСТАНА

Наличие множества музеев с самыми различными коллекциями отражает особенности обществен-

ного и культурного развития Узбекистана. Музеи играют не только просветительскую роль, но и активно способствуют воспитанию молодого поколения в духе патриотизма, гордости за великих предков. Именно музеи помогают приобщаться к культурному, историческому, художественному наследию, к общечеловеческим ценностям, ознакомиться с памятниками истории, науки, традициями и бытом народов, произведениями искусства.

В Узбекистане невероятно широк ассортимент коллекций музеев, включая экспонаты из различных областей науки и культуры.

Лекции музейных экспонатов, являющихся уникальными произведениями искусства, а также чудесами архитектуры, ценность которых очень сложно оценить. Многие из популярных музеев, известных широкой аудитории, имеют солидный возраст и действуют в стране более ста лет.

Во всех музеях Узбекистана выставлены для публичного просмотра миллионы увлекательных и интересных экспонатов среди которых немало всемирно известных и ценных шедевров искусства, относящихся к периодам времени начиная с древних цивилизаций и вплоть до настоящих дней.

Экспонаты относятся к областям культуры, поэзии, торговли, науки и истории народов Центральной Азии разных исторических периодов времени. Изделия народно-при-

кладного искусства, ценные рукописи, музыкальные инструменты, а также нумизматические предметы, этнографические реликвии и археологические находки и артефакты являются бесценными произведениями искусства и богатым



культурным наследием узбекского народа, на которые каждый может посмотреть, просто посетив любой из музеев страны.

В Узбекистане работают музеи: истории, экологии, природы, естествознания, искусств, краеведческие, геологические, археологические, транспортные, технические, военные, научные, литературные, мемориальные, арт-галереи, музеи городища, дома-музеи и, конечно же, музеи под открытым небом.

В музеях Узбекистана много стендов с работами мастеров древности, полных художественных сокровищ и объектов старины всех эпох, исключительных коллекций экспонатов, являющихся бесценным культурным и художественным наследием, которые отражают жизнь, быт, историю и искусство, а также творчество и дела великих людей, живших на территории Центральной Азии и оставивших след в истории как региона, так и во всем мире, что свидетельствует о богатом и ярком историческом прошлом страны, с которым можно детально ознакомиться во время музеиных экскурсий.

Старейший музей Центральной Азии и Ташкента – Государственный музей истории Узбекистана – был открыт в Ташкенте 12 июля 1876 г. Краеведческие областные музеи

также были открыты в 1896 г. в Самарканде, и в 1899 г. в Фергане. Коллекции были разнородны, нередко носили случайный характер, но все же они давали знания о истории, природе и обществе, способствовали росту общеобразовательного и культурного уровня местного населения.

Наиболее известными и значимыми музеями Узбекистана являются: Государственный музей истории, Государственный музей прикладного искусства, музей истории Темуридов, Государственный музей искусств имени И. В. Савицкого, Государственный музей природы. Общее количество музеев, действующих в Республике Узбекистан, составляет 134 (включая филиалы).

Ежегодно 18 мая празднуется Международный день музеев. Он появился в календаре в 1977 году. С 1978 года этот день стал отмечаться более чем в 150 странах.

В сам же праздник многие музеи в разных странах мира открывают свои двери для всех желающих совершенно бесплатно, готовят новые экспозиции, тематические лекции, экскурсии, научные чтения. Этот день традиционно широко отмечается и в Узбекистане.

JONDORDA OSOYISHTALIK

Buxoro viloyatining Jondor tumani IIB xodimlari yurt osoyishtaligini ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olishdek mas'uliyatlari hamda xayrli vazifani bajarishga munosib hissa qo'shib kelishyapti. Tuman IIB faoliyati bilan tanisharkanmiz, bunga yana bir karra amin bo'ldik.

– Joriy yilning birinchi chora-gida amalga oshirilgan ishlar an-chayin salmoqli, – deydi tuman IIB boshlig'i o'rinnbosari, mayor Odil Umurov. – Bunda barcha sohaviy xizmat xodimlari, mahalla «yettiliq» hamda keng jamoatchilik vakillari bilan hamkorlikda o'tkazilayotgan profilaktik tadbir-u targ'ibotlarning ahamiyatini ham ta'kidlash mumkin. Shuning natijasida qotillik, og'ir va o'rtacha tan jarohati yetkazish, oilaviy zo'ravonlik, bosqinchilik, talonchilik kabi jinoyatlar umuman qayd etilmadi, firibgarlik, o'g'rilik hamda bezorilik jinoyatlari esa keskin kamayishiga erishildi. Sodir etilgan jinoyatlarni fosh qilish ko'rsatkichi ham yaxshilandi.

Joriy yilning 12-mart kuni tuman IIB TQKG hamda YHXG xodimlari hamkorligida o'tkazilgan reyd tadbirlari jarayonida «Sho'robod» mahalla fuqarolar yig'ini hududidan o'tuvchi «M-37» avtomagistiral yo'lida qarama-qarshi yo'nalihsda ketayotgan «Armada motors» rusumli moped haydovchisi Q.U. to'xtatib tekshirilganda, uning yonidan 3 dona oq sellofan paketga o'ralgan ko'kimtir rangli, o'tkir hidil 38,08 gramm miqdordagi marixuana giyohvandlik vositasi borligi aniqlandi. Ushbu holat yuzasidan olib borilgan surishtiruv ishlari davomida xolislar ishtirotida uning yashash xonadoni yotoqxonasining kiraverishidagi pol tagidan ham sellofan



paketga solingen umumiyy vazni 155,8 grammmi tashkil qilgan matrixiana giyohvandlik vositasi chiqdi.

O'tgan uch oy davomida jazoni ijro etish koloniylaridan kelgan 11 nafar mahkumga bir martalik moddiy yordam pullari berilgach, Probatsiya guruhi tomonidan to'g'ri turmush tarzini ta'minlash maqsadida ular ishga joylashtirildi. Shundan 6 nafari qayta kasbga o'qitildi. Jazonan bo'yin tovlab kelgan 9 nafar mahkumga og'irroq turdag'i jazo tayinlandi. Mehnatga halol va vijdonan yondashgani uchun 17 nafar mahkum jazonan shartli ravishda ozod qilindi.

«Sho'robod» mahallasi tumanining namunali hududlaridan biri hisoblanadi. Bu yerda asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanishadi. Mahalladagi 185 ta oila boshlig'i tadbirkorlik

bilan shug'ullanadi. Shuningdek, o'nga yaqin korxonalar faoliyat ko'rsatadi. Aholining aksariyati shu korxonalarda ishslashadi. Profilaktika inspektori, katta leytenant Temir Ochilov mahalla raisi va faollar bilan hamkorlikda xizmatni tashkillashtirgan. «Obod va xavfsiz mahalla» tamoyili asosida jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar bilan profilaktik targ'ibotlarni kuchaytirgan tartibda olib bormoqda. 10 nafar uyushmagan yoshlarga 20 sotixdan yer maydoni ajratilib, ular dehqonchilik qilishlari uchun sharoit yaratildi. Bunday ishlar o'z samarasini beryapti. Mahalla huddidida uch yildan beri jinoyat qayd etilmadi, huquqbazarlik holatlari keskin kamaydi.

**Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.**

Buxoro viloyati.



INNOVATSIYA

ILG'OR TEKNOLOGIYALAR FESTIVALI

Harbiy sohaga innovatsion g'oya va texnologiyalarni hamda ratsionalizatorlik ishlanmalarini keng joriy qilish, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida joriy yilning 2-4-may kunlari poytaxtimizdagi «G'alaba bog'i» hududida «MSITF-2024» mudofaa sohasida innovatsion texnologiyalar festivali» bo'lib o'tdi. Unda respublikamizning barcha yo'nalihsdagi ta'lim muassasalari o'quvchi yoshlari va xususiy sektor tadbirkorlari sohaga oid ishlanmalari hamda mahsulotlari bilan ishtirok etishdi.

Ko'rgazmada innovatsion texnologiyalarni amaliyatga tafbiq etish hamda Qurollı Kuchlar tizimida mayjud bo'lgan ob'ekt, bino va inshootlarning texnik xavfsizligini ta'minlash maqsadida IIV harbiy tuzilmalarining faoliyatini ta'minlash bazasi mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan «Qo'rg'on» texnik qo'riqlash vositasi jamlanmasi namoyish qilindi. Ushbu jamlanma zamonaviy texnologiya va dizayn uyg'unligida yaratilgan qo'riqlash tizimi bo'lib, ko'rgazma ishtirokchilarida ijobji taassurot qoldirdi.

Bundan tashqari, ishlab chiqarish faoliyati hamda mahalliy mahsulotlar bozorini kengaytirish maqsadida baza boshlig'ining birinchi o'rinnbosari, mayor Sh. Murodov, Yangi texnologiyalarni ishlab chiqarish bo'linmasi boshlig'i, katta leytenant S. Rashidov va Innovatsion texnikalarni joriy etish bo'linmasi boshlig'i, katta serjant I. Shaynazarovlar O'zMU huzuridagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy tadqiqot instituti bilan hamkorlikda bajarilayotgan «Zamonaviy qo'riqlash tizimlari uchun yuqori chastota-



li elektromagnit to'lqinli datchiklar ishlab chiqarish» mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida ishlab chiqarilgan va «Qo'rg'on» texnik qo'riqlash vositasining tarkibiy jamlanmasiga kiritilishi ko'zdautilgan turli xil datchiklar asosidagi qurilmalarni namoyish etishdi. Loyiha doirasida ishlab

chiqarilgan datchiklar Qurollı Kuchlar sohasidagi ob'ekt va hududlarni nazorat qilish, kuzatilishi mumkin bo'lgan huquqbazarliklarning oldini olish hamda rivojlangan mamlakatlar bilan tajriba almashish imkoniyatini yaratadi.

O'z muxbirimiz.

<TOZA HAVO> OYLIGI DOIRASIDA

EKOLOGIYA MUSAFFOLIGI O'Z QO'LIMIZDA

Joriy yilning 10-aprelidan 10-mayiga qadar yurtimiz bo'ylab «Toza havo» ekologik aksiyasi o'tkazilmoqda.

Samarqand viloyatida ham ekoliya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi YHXB xodimlari bilan birgalikda shaharning markazi ko'chalarida joylashgan barcha yo'l-patrul punktlarida avtomobillar maxsus jihozlar yordamida tek-

shirilib, ulardan atmosferaga chiqayotgan zararli gazlar miqdorini o'chash ishlari olib borilmoqda.

miqdori maxsus jihozlar yordamida aniqlanmoqda. Olin-gan ma'lumotlar davlat standartlari bilan taqqoslanadi.

tashlanmalar o'tgan asrning 70-80-yillarda ishlab chiqarilgan yuk mashinalari hissasiga to'g'ri keladi.

Ekoliya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda mavjud qariyb to'rt millionta avtomobildan 100 mingtasi nosoz. Yil davomida atmosferaga o'rtacha 1,27 million tonna zararli tashlanmalar chiqariladi, bu umumi tashlanmalarning 60 foizini tashkil etadi (Toshkent shahrida bu ko'rsatkich 88 foizga teng).

Ekologik me'yordarga mos kelmaydigan transport vositalaridan foydalanish undagi kamchiliklarni bartaraf etilgunga qadar vaqtincha taqiqlanadi.

Estatib o'tamiz, «Toza havo» oyligi har yili havo ifloslanishi darajasini kamaytirish maqsadida o'tkaziladi.

Zamira BOLTAYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.



Ushbu tadbir davomida transport vositalaridan chiqadigan gazlarning zaharlilik darajasi, shuningdek, tutun

95 nafr haydovchi jarimaga tortildi. Ma'lum bo'lishicha, eng ko'p miqdorda ifloslaniruvchi muddalar va zararli

<JAZONI IJRO ETISH TIZIMIDA

HUNAR BO'LSA QO'LINGDA – NON-NASIBANG YO'LINGDA

Qo'ilda hunari bor odam halol yo'l bilan rizq topadi. U kamdan-kam hollarda jinoyat ko'chasiga kiradi. Shu bois, so'nggi yillarda jazoni ijro etish muassasalari xodimlari mahkumlarning jinoyat sodir etishiga sabab bo'lgan omillarni chuqur tahlil qilib, kelgusida bunga yo'l qo'ymaslik maqsadida tegishli chora-tadbirlarni belgilab olishmoqda. Xususan, IIV huzuridagi JIED Beshinchi mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi tasarrufidagi koloniyalarda yosh mahkumlar bilan ishlashga bevosita mas'ul xodim biriktirilib, ularni o'qitish, kasb-hunarga o'rgatish, ozodlikka tayyorlash borasida tizimli ishlар tashkil etilmоqda.



Jumladan, 12-son jazoni ijro etish koloniyasida «Tengdosh-tengdoshga» tamoyili asosida yosh mahkumlar orasidan ularning yetakchisi tayinlangan. Yetakchilar yosh mahkumlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, ularni o'quv kurslari va to'garaklarga, madaniy-ma'rifiy va sport tadbirlariga jalb qilishda muassasa ma'muriyatiga yaqindan ko'maklashyapti.

Bundan tashqari, koloniada «Yoshlar salohiyatini yuksaltirish markazi» tashkil etildi. Mazkur markazda yosh mahkumlar ishtiroki-da tadbirlar uyushtirilib, o'quv kurslari, ingliz tili, shaxmat-shashka, voleybol to'garaklari faoliyat ko'rsatmoqda. Kelgusida duradgorlik, elektr payvandchilik to'garaklarini ham tashkil etish re-jalashtirilgan.

Koloniyada kasb-hunari bo'Imagan mahkumlarga «Hunarmand» uyushmasining tajribali usta-hunarmandlari hunar o'rgatishmoqda. Raqamlarga murojaat etadigan bo'lsak, joriy yilning 1-choragi davomida 60 nafr mahkum kasb-hunarga o'qitilib, koloniyaning ishlab chiqarish korxonasidagi mutaxassisligiga mos sex-larga ishga joylashtirildi. Ayni paytda

yana 60 nafr mahkumga kasb-hunar sirlari o'rgatilmoqda.

Ushbu muassasada mazkur yo'nalish bilan yosh mahkumlarni to'liq qamrab olishga alohida e'tibor qaratilgan. Qo'ilda hunari bo'Imagan yoshlar ustoz-shogird an'analari asosida issiqxona tashkil etish, bog' yaratish, quyonchilik va parrandachilik sir-asrorlaridan xabardor mahkumlarga biriktirilgan.

Umuman olganda, bugun Markaz tasarrufidagi muassasalarda yoshlar bilan ishslash, ularni halol mehnat qilishga va zamonaviy kasb-hunarga o'rgatish eng ustuvor vazifaga aylangan.

Ishonamizki, kasb-hunar egalayotgan, issiqxona tashkil etish, unda mahsulot yetishtirishni o'rganayotgan bu yoshlar ozodlikka chiqqach halol mehnati tufayli oиласига, xonardoniga fayz-u baraka, to'kinlik olib kiradi, xalq dasturxoniga esa sara mahsulotlar yetkazib berishadi. Zero, qonunga itoatkorlik, jamiyatda yurish-turish qoidalariiga amal qilish, ijtimoiy hayotga moslashuvchanlik ko'nikmasini shakllantirish, yana jinoyat sodir etilishining oldini olish uchun mahkumlarni o'qitib, kasb-hunarga yo'naltirish muhim sanaladi.

Shahrizod SHOKIROV,
katta leytenant.



Династия

ПРЕЕМСТВЕННОСТЬ ПОКОЛЕНИЙ

Зачинатель династии Набижон Нишонов более 30 лет прослужил в органах внутренних дел Андижанской области. В основном его работа проходила в подразделениях уголовного розыска, в районных отделах внутренних дел и УВД.

На заслуженный отдых Набижон ака вышел в 1984 году в звании капитана. Его служба пришлась на послевоенные годы, когда сотрудники уголовного розыска боролись с проявлениями бандитизма, задерживали опасных вооруженных преступников, рискуя здоровьем и жизнью.

– Отец не любил рассказывать о службе, – говорит его сын, подполковник Содикжон Нишонов. – Он приходил домой уставший, но всегда находил время, чтобы проверить, как мы выполняем домашние задания. В семье было четверо детей: два мальчика и две девочки. Уже тогда, будучи подростком, не сомневался, что стану сотрудником органов внутренних дел.

Содикжон Нишонов начал службу с оперуполномоченного группы уголовного розыска, служил на руководящих должностях Мархаматского, Асакинского РОВД и ГОВД города Андижана,



был заместителем начальника Управления профилактики правонарушений УВД Андижанской области. С 2017 года он занимает должность начальника Центра оказания социально-правовой помощи несовершеннолетним Управ-

ления профилактики правонарушений.

По стопам отца пошли и его сыновья. Старший сын окончил Высшие курсы Академии МВД по подготовке сержантского состава. Сейчас сержант Искандарбек Набиев занимает должность

инспектора изолятора временного содержания УКД ОВД по городу Андижану.

Младший сын в прошлом году был принят на службу в органы внутренних дел и был назначен водителем-оператором УБДД СОБ УВД. В

будущем году рядовой Самандарбек Набиев намерен поступать в Академию МВД.

– Мои дочери, Гулирано и Гулирайхон, пошли по стопам матери, – говорит Содикжон Нишонов. – Супруга всю жизнь проработала медсестрой, дочери сейчас также работают медсестрами. Всегда с благодарностью вспоминаю своих наставников – полковника Жаббарали Рахмонова, подполковников Давронбека Юсупова и Валижона Бутаева, которые щедро делились опытом и передавали накопленные знания.

За годы службы С. Нишонов воспитал немало достойных учеников, которые занимают ответственные должности в подразделениях органов внутренних дел.


В большой семье Нишоновых–Набиевых растут девять внуков. Время покажет, пойдет ли кто-то из них по стопам прадеда, деда и отца.

**Борис КЛЕЙМАН,
соб. корр.**

На снимке: подполковник Содикжон Нишонов с сыновьями.

■ Сурхандарьинская область

СЧАСТЬЕ ЖЕНЩИНЫ В БЛАГОПОЛУЧНОЙ СЕМЬЕ



Благодаря мерам поддержки женщин растет их роль в общественной жизни страны. Сегодня нет такой сферы, где они не принимают участия. Примером тому служит деятельность старшего инспектора по вопросам женщин отдела профилактики правонарушений Кумкурганского РОВД лейтенанта Мадины Эшмуродовой.

За минувший период года в целях предупреждения притеснения и насилия в отношении женщин района старший инспектор оформила 67 охранных ордеров. В результате удалось урегулировать семейные ссоры. Троє мужчин, не соблюдавших ограничения, привлечены к административной ответственности.

Лейтенант М. Эшмуродова также на постоянной основе проводит профилактические беседы с женщинами, предрасположенными к правонарушениям. Благодаря этому в масштабе района не зафиксированы случаи совершения преступлений с их участием.

В Кумкурганском районе насчитывается 247 600 жителей, из них 124 800 – женщины. Вопросы защиты прав и обеспечения интересов жительниц района входят в круг задач старшего инспектора. Совместно с активом махалли и инспектором профилактики лейтенант Эшмуродова спешит оказать социально-правовую помощь.

– В настоящее время составлен список из 82 семей, которые ведут судебные тяжбы, – говорит лейтенант Мадина Эшмуродова. – В целях их урегулирования проводим выездные приемы. Эти приемы дают положительные результаты. Проводим адресную работу с ранее судимыми женщинами и состоящими на учете службы пробации. В результате не допущено ни одного рецидива. Меры по обеспечению занятости, принимаемые совместно с организациями-партнерами, также приносят хороший эффект.

**Феруза РАХМОНКУЛОВА,
соб. корр.**

www.postda.uzt.me/postdarasmiywww.facebook.com/postdauzwww.instagram.com/postda_uz

PROFILAKTIKA XIZMATI

«ISTIQLOL» XAVFSIZ VA RAQAMLASHGAN MAHALLA

Xiva tumanidagi «Istiqlol» mahallasi «yettiligi» aholi farovonligini ta'minlashdek ezgu maqsad yo'lida bir tan-u bir jon bo'lib fidoyilik bilan mehnat qilishyapti. Ay-niqa, profilaktika katta inspektori, katta leytenant Zokirjon Xudayberganovning mahalla faollari bilan hamjihatligi, hamfikrli mahallada jinoyat hamda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda qo'kelmoqda.

Joriy yil boshidan ichki ko'chalarining kirish va chiqish joylariga, maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlariga, tadbirdorlik subyektlariga, shuningdek, jamoat joylariga 40 ta kuzatuv kamerasi o'rnatilib, profilaktika inspektorining xizmat xonasiga integratsiya qilindi.

Yana bir yangilik, mahalla binosi oldiga «SOS» tezkor chaqiruv qurilmasi o'rnatildi. Endilikda mahalla fuqarolari o'z murojaatlarini ushbu qurilma orqali profilaktika inspektoriga onlayn tarzda yo'llash imkoniyatiga ega bo'lishdi. Bu qurilma profilaktika inspektorining xizmat elektron planshetiga hamda mobil telefoniga ulangan. U qayerda bo'lishidan qat'i nazar, fuqarolarning murojaatlardan tezkorlik bilan xabar topib, qonuniy hal etish choralarini ko'radi. Ushbu tezkor chaqiruv qurilmasi yordamida 21 ta murojaat qabul qilinib, qisqa



fursatlarda ijobiy hal etildi. Qolaversa, sodir etilishi mumkin bo'lgan 2 ta jinoyatning barvaqt oldi olindi.

Mahallada «xonardonbay», «fuqarobay» ishlash tizimi asosida aholining turmush sharoitlarini o'rganish jarayonida ehtiyojmand, nizoli oilalar, ishsiz fuqarolar, spirtli ichimlikka ruju qo'ygan, jinoyat sodir qilishga moyil bo'lgan va boshqa toifadagi shaxslar aniqlanib, ular

bilan profilaktik suhabatlar olib borilmoqda. Shuningdek, ularni ish bilan ta'minlash, imtiyozli bank kreditlari ajratish orqali tadbirdorlikka jalb qilish choralar ko'rilyapti. Mahalla fuqarolar yig'ini raisi Otabek Jumaniyozov, hokim yordamchisi Ruslan Adamov, xotin-qizlar faoli Dilnoza Xudoyberanova, yoshlar yetakchisi Navro'z Ozodov bilan hamkorlikdagi sa'y-harakatlar natijasida ularning

muammolari ijobiy hal qilinmoqda. Bunda ichki ishlar organlari faxriyalaridan iborat bo'lgan maslahatchi murabbiylarning yordami ham samarali bo'lyapti. Pirovard natijada hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ancha yaxshilanib, jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmayapti.

Xudoybergan JABBOROV,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

FIDOYI XODIMLAR

IIV Transport va turizm obyektlarida xavfsizliklikni ta'minlash departamentining «GM Uzbekiston» ochiq aksiyadorlik jamiyati mahsulotlarini kuzatish batalyoni 1-otryadi (Asaka bekti) guruh komandiri, katta serjant Azizbek Yulbarsovning xizmat olib borayotganiga 20 yil to'ldi.

Hamkasblarining e'tirof etishicha A. Yulbarsov o'ta zukko va irodali, maqsadga erishish yo'lida har qanday qiyinchiliklarni yengib o'tishga qodir. O'zi boshchilik qilayotgan guruhning har bir xodimning ishchanlik qobiliyatini yaxshi biladi.



Andijon viloyati

– Bolaligimdan huquq-tartib posbonlarini ko'ssam, juda havasim kelardi, – deydi A. Yulbarsov. – Ular sharafli ish bilan shug'ullanadi, deb hisoblardim. 20 yildan beri ichki ishlar organlarida, 2019-yildan buyon esa egallab turgan lavozimda xizmat qilaman.

Lekin, eng muhimmi, meni uyda ishchonchli yordamchilarim, hamisha qo'llab-quvvatlaydigan va tushunadigan yaqinlarim kutadi. Turmush o'rtog'im va o'g'illarim asosiy vaqtim deyarli xizmatda o'tishiga ko'nikib ketishgan. Dam olish paytlarida o'choqda va afg'on qozonida ovqat pishirishni yaxshi ko'raman. Bu ishni har doim jon-u dilim bilan ado etaman.

Boris KLEYMAN,
o'z muxbirimiz.

UCHINCHI SEKTORDA NIMA GAP?

НАМЖИНАТЛИК НИКМАТИ

Jomboy tumani 3-sektoriga qarashli 10 ta mahallada 45 435 nafar aholi istiqomat qiladi. Joriy yilda hududdagi 856 ta oila «Temir daftar»ga, 1221 nafar xotin-qiz «Ayollar daftari»ga, 55 nafar yigit-qiz «Yoshlar daftari»ga kiritildi. Bugungi kunga qadar ularga 1 milliard 139 million so'mdan ortiq moddiy yordam ko'rsatildi.

E'tiborli jihat shundaki, Aholining real daromadlarini oshirishning eng birinchi omili bandlikni ta'minlash ekanligi inobatga olinib, hududda turli faoliyat yo'naliishlari ommalashtirilmoqda. Xususan, «Nayman» mahallasi malinachilikka ixtisoslashtirilgan bo'lib, hozirda 200 dan ortiq oila dehqonchilikning ushu yo'naliishi bilan band.

– Malinachilik bilan 2010-yildan buyon shug'ullanib kelaman, – deydi tajribali bog'bon O'tkir Abdullayev. – Dastlab ishni faqat oila a'zolarim bilan boshlagan edik. Keyinchalik mahallamiz ahli ham bog'dorchilikning shu turi bilan daromad topish mumkinligini tushunib, qiziqib yonimizga kirishdi. Xillas, bir-birimizga o'rnatib, qarashib malinachilar mahallasiga aylandik. Hozirda mening o'zimda hovli va bog'im bilan qo'shib hisoblaganda uch gektar malinazorim bor. Maydon katta, oilaviy yig'ilib ishlasak ham ulgura olmaymiz. Shu bois mavsumiy o'n nafar, terim vaqtida o'ttiz nafardan ortiq yollanma ishchilar mehnatidan foydalananamiz.

O'tkir akadan daromadi haqida so'raganimizda, halol mehnatidan baraka topayotgan bog'bon yaxshilab ishlov berilsa, bir sotix yerdagi maliyadan bir yilda o'rtacha hisobda 2–3 million so'm daromad olish mumkinligini aytdi. Qolaversa, bahorda malina ko'chatlarini sotish orqali ham yashigina foya ko'rishini yashirmadi.

Tumanning «Katta qishloq» MFY hududidagi «SAG AGRO» MCHJga qarashli «In vitro» laboratoriyasida 120 dan ortiq doimiy, 200 dan ortiq mavsumiy ishchilar mehnat qiladi. E'tiborlisi, ushu ish o'rinalining hammasini mahalliy aholi band etgan.

– Laboratoriya eng zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan, – deydi



«SAG AGRO» MCHJ bo'lim boshlig'i Elboy Bozorov. – 10 nafardan ortiq biotexnolog, agronom va agroximik xodimlarimiz AQSH, Turkiya va Ispaniya davlatlarida malaka oshirib qaytdi. Hozir laboratoriymizda bodom, yong'oq, uzum, olxo'ri, shaftoli, gilos, o'rik, nok va olma kabi mevali daraxtlarning turli kasallik va zararkunandalardan xoli bo'lgan, qurg'oqchilikka chidamlı, mahalliy iqlim sharoitiga mos navlarining klon payvandtaglari va payvandlangan ko'chatlari yetishtirilmoqda.

«Zarafshon» mahallasi 3-sektordagi «yashil» hududlardan biri. Aholining asosiy daromadi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish yo'nalihsidan.

– Xizmat hududimdagи 1166 xonadonda 5225 nafar

aholi istiqomat qiladi, – deydi mahalla profilaktika inspektor, katta leytenant Habibullo Zikirov. – «Zarafshon» milliy tabiat bog'i hududdagi eng muhim maskan. So'lim bog' xorijlik va mahalliy sayyoohlar bilan doim gavjum bo'ladi. Bu, o'z navbatida, hudud osoyishtaligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratishni tabab etadi.

– Mahallamiz ahli keyinigi o'zgarishlardan mamnun, deya suhabatga qo'shildi mahalla fuqarolar yig'ini raisi Qodirjon Tursunov. – Yurtimizda tadbirkorlik faoliyatiga keng yo'l ochib berilgani tufayli mahalladoshlarimizning ko'pchiligi, ayniqsa, yoshlar ishli bo'ldi. Qolaversa, mahallamizning asosiy ko'chalari asfalt qilinib, ichki ko'chalarga, shag'al yotqizilishi barchani quvontirdi.

Farzandlarimiz ishiga, nabiralar maktabiga loy-changsiz ko'chalaridan borib kelyapti.

Tinchlik, osoyish-talik, farovon hayot, ezgu maqsad, xayrli ishlar... Jomboy tumani 3-sektor hududida mutasaddi rahbarlarning tashabbuskorligi, bag'rikeng va mehnatkash yurtdoshlarimiz hamjihatligiga shunday yoqimli sifatlar yaratadi.

Gulnoza
TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.
Samarqand viloyati.



Хамид
ОЛИМЖОН



ҚўЛИНГГА ҚУРОЛ ОЛ!

Ҳаёт қайнаб тонг туманида,
Кўз илғамас эл ўрмона,
Зўр ўлканинг қайноқ қонида:
Ҳукм сурар сафарбар бир ҳол:
Қўлингга курол ол!

Қўрсин десанг жаҳонни кўзим,
Ўссиң десанг боғимда узум,
Умид билан ўстирган қизим
Десанг агар бўлмасин увол:
Қўлингга курол ол!

Бўлсин десанг дунё сенга кенг,
Қолсин десанг қўлингда эркинг,
Бўлай десанг сен одамга тенг,
Бўлмай десанг ёвларга ҳаммол:
Қўлингга курол ол!

Олай десанг фашистдан қасос,
Қўлингга ол қилич ва олмос,
Яғринингга винтовкани ос!
Қолмай десанг айтишганда лол:
Қўлингга курол ол!

Юрса агар томирда қонинг,
Азиз бўлса бир парча нонинг,
Керак бўлса номус, виждонинг,
Бўлсанг йигит, бўлсанг ҳамки чол:
Қўлингга курол ол!

Жон юртингга босиб келган ёв,
Тоғларингда қилолмасдан ов,
Сен қувгандা пиёда, яёв
Қочсин десанг гўё қорамол:
Қўлингга курол ол!

1941



Ойбек

КОРАХАТ

Бехосдан узилган шода дур каби,
Тўкилди умиднинг рангли барглари.
Осилди бир онда қўллар мадорсиз,
Ер қочди, қорайди күёш зарлари...

1941

* * *

Йиги келмайди сира...
Fa забдан қақраган кўз.
Бу йўлларнинг яхидек
Лабимда қотипти сўз.
Қошлар, киприклар қиров —
Юраман ҳушсиз, ҳайрон.
Қорним оч, эсга келмас
Халтамдаги фиштдек нон...
Куйган уйларда увлар
Қиши куюни бетиним.
Танҳо кезаман. Йиглар
Юрагимда Ватаним.

1944



Женщины в погонах

РАБОТА ПО ДУШЕ

Сегодня представительницы прекрасной половины служат практически во всех подразделениях органов внутренних дел. Женщины более терпеливы, усидчивы, легче справляются с нагрузками, которые возлагаются на сотрудников органов внутренних дел, в том числе и психологическими.

Сержант Нурия Хамзина более 20 лет служит в органах внутренних дел. Начала с должности сотрудника картотеки адресного бюро УВД области. Спустя два года она была назначена старшим делопроизводителем канцелярии УВД. 12 лет Н. Хамзина прослужила в специальном отделе УВД. Последние два года она младший специалист отдела правовой статистики и оперативно-учетной информации. Где бы ни работала героиня нашего рассказа, везде она серьезно относилась к служебным обязанностям, четко выполняла поставленные задачи, проявляла аккуратность и высокую работоспособность.

Эти качества ей передались от матери. Ведь мама – Фарида Сира-

зетдинова – более сорока лет проработала на различных должностях в УВД. На заслуженный отдых вышла несколько лет назад с должности начальника канцелярии.

– Всегда с благодарностью вспоминаю своих наставников – подполковников Исройилжона Юсупова и Муродилло Сотоволдиева, старшего сержанта Лутфулло Муродова, которые делились со мной опытом, знакомили с тонкостями работы, – рассказывает Нурия.

В свободное от службы время Нурия занимается воспитанием 12-летнего сына Тимура, который мечтает быть врачом, любит готовить, читает детективы.

Соб. корр.

Андижанская область.



Год поддержки молодежи и бизнеса

■ Джизакская область



Большое внимание представителями 3-го сектора уделяется обеспечению занятости населения. В частности, в разной форме оказано содействие 18 субъектам предпринимательства в сельском сходе граждан «Узбекистон».

Дилфуз Бердиева долгое время занималась пошивом трикотажа на дому. Учитывая

ее опыт и стремление открыть свой бизнес, женщине было выделено помещение в здании схода граждан и субсидия на приобретение 12 швейных машинок. Благодаря этому появился цех, где работу получили 10 местных жительниц. Небольшой коллектив изго-

тавливает мужскую и женскую одежду, продукция реализуется в столице.

В здании схода граждан действуют еще два цеха по пошиву женского трикотажа. Эти небольшие производственные мощности позволили в течение года обучить швейному делу

более 200 женщин и девушек. В целом в 3-м секторе за счет предоставления кредита, земельных площадей и оборудования создано 213 рабочих мест. В почти половине из них занята молодежь.

Алижон АБДУСАТТОРОВ,
соб. корр.

На снимке: заместитель начальника Мирзачульского РОВД подполковник Мирзаахмад Абдухалилов и председатель сельского схода граждан «Узбекистон» Шохида Абдукаримова.



www.postda.uz



t.me/postdaramsiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz

KURSANT MINBARI

BERK KO'CHANING OXIRI

yoxud kechirimlilik mevasi

Tobora shiddat bilan rivojlanib borayotgan bungungi dunyoda kundan-kunga avj olib, o'zining ildizlarini keng yoyayotgan jinoyatchilik muammosi dolzarb muammoga aylanmoqda. Ushbu muammoni bartaraf etishning eng samarali usullaridan biri jinoyatchilik profilaktikasidir. Xususan, jazoni ijro etish muassasalarida olib borilayotgan tarbiyaviy-profilaktik ishlarning asosiy maqsadi ham mahkumlarning qayta jinoyat sodir etishiga yo'l qo'ymaslikdan iboratdir.

Bilib-bilmay o'zi anglama-gan holda, jinoyat sodir etib, berk ko'chaga kirib qolgan va o'zining sodir etgan qilmishi sababli panjara bilan qoplan-gan «tarbiya muassasasi»ga kelib qolgan shaxslar ham

yo'q emas. Aksariyat mahkumlar o'z qilmishidan pu-shaymonligini, qayta jinoyat sodir etmasligini va bu yo'ldan boshqa yurmasligini ta'kidlaydi. Lekin ular orasida turli sabablarga ko'ra, har xil tur-

dagi jinoyatlarni sodir etgan va bu yo'ldan qaytmasdan, takroran bir necha marotaba jinoyat sodir etib, qilmishiga yarasha javobgarlikka tortilganlari ham bor.

O'z qilmishining qonunga xilofligini anglab yetib, tuzalish yo'liga kirgan shaxslarga oilasi bag'rige qaytish imkonini berish yurtimizda olib borilayotgan bag'rikenglik va kechirimlilik siyosatining yorqin namunasi sanaladi. Xususan, Prezidentimizning 2024-yil 8-apreldagi «Ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon

bo'Igan va tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni afv etish to'g'risida»gi farmoniga binoan, 426 nafar shaxsning afv etilgani fikrimiz tasdig'idir.

Xulosa o'rnida aytish joizki, Hayotda o'zi bilib-bilmagan holda jinoyat ko'chasiga kirib qolgan shaxslarni to'g'ri yo'Iga boshlash, ularni jamiyatga qaytarish, kechirimli bo'lish va ozodlikka chiqqan shaxslarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash, qayta jinoyat sodir etishining oldini olish choralar ko'rilyapti. Bu boradagi ishlarning samaradorligini oshirish maqsadida



**Farangiz HAMRAYEVA,
IV Akademiyasi
bitiruvchisi.**

ularni yangicha g'oyalar va yondashuvlar asosida tashkil etish muhimdir.

MUAMMO, MULOHAZA

18 GA TO'L MAGAN «HAYDOVCHILAR»

So'nggi paytlarda voyaga yetmagan bolalar avtomashina boshqarib, yo'l harakati qoidalariga ham, odob-axloq me'yorlariga ham rioya qilmashdan, xurmacha qiliqlar qilayotgan holatlarni ko'p kuzatyapmiz. Buning ayanchli oqibatlari esa kishining ko'nglini xira qiladi, albatta.

Aynan shu yoshlar tomonidan sodir etilgan yo'l-transport hodisalari ga e'tibor qaratar ekanmiz, avvalo, o'zimizning dilbandlarimiz ko'z ol-dimizga kelib, yuragimiz orqaga tortib ketadi. Axir, kim avtohalokat oqibatida farzandidan ayrilib yoki nogiron bo'lib qolishni istaydi!?

...Jizzax shahrida xizmat vazifasini bajarayotgan YPX inspektori «Nexia» rusumli avtoulovni to'xtatdi. Buni qarangki, rulda 13 yashar makkab o'quvchisi. Ota o'g'liga transport vositasini boshqarishni topshirib qo'yan, bo'lakay esa shahar ko'chalarida bemalol sayr qilib yurgan. Aytishicha, mashina boshqarishni o'rganganiga ancha

Achinarlisi, YPX inspektorining «xavfli vaziyat deganda nimani tushunasan», degan savoliga javob bera olmagani «haydovchi» bola boshqaruvidagi avtoulov bilan ko'ngilsiz hodisa sodir bo'lmaydi, deb hech kim kafolat bera olmaydi.

Hartugul, bu bola bilan biror-bir noxush holat ro'y bermabdi, deya yengil tin olgandirsiz, lekin quyidagi misollarda...

Navoiylik 8-9 sinf o'quvchilarini so'roqsiz «Matiz» avtomashinasini haydar, viloyat markazidan Nurota tumaniga borishadi. Qaytishda rulda o'tirgan bola boshqaruvni yo'qtadi va mashina YTHga uchraydi. Oqibatda



batida esa ikki kishi jarohat oldi. Bunga sabab tonggi soat 05:00larda Toshkent metallurgiya zavodi qarshisida 2007-yilda tug'ilgan, voyaga yetmagan B.Sh. «Matiz» rusumli avtomashinani boshqarib ketayotib, harakatsiz turgan 26 yoshli J.Sh. boshqaruvidagi «Lada» bilan to'qnashuv sodir etganidir. Oqibatda «Matiz» va «Lada» haydovchilari turli tan jarohatlari bilan shifoxonaga yotqizildi.

Samarqand shahrida 15 yoshli makkab o'quvchisi otasining mashinasini boshqarib, yo'Ining qatnov qismidan o'tayotgan piyodani urib yubordi. Holat bo'yicha jamoatchilik vakillari ishtirokida muhokama yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda ota-ona izza bo'ldi, lekin ular oldinroq o'g'lining tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratishganida edi...

Yangi Namangan tumani. 11-sinf o'quvchisi tog'asining nomida bo'Igan «Lacetti»ni tumanning Yettinchi mingchinor ko'chasida boshqarib ketayotganida tezlikni oshirdi. Natijada yo'Ining qarama-qarshi qismiga o'tib ketib, yo'l chetida turgan Naman-gan muhandislik-qurilish institutining 2 nafar talabasini urib yubordi. Hodisada yigitlardan biri yengil jarohat oldi, ikkinchisi esa tibbiy yordam ko'rsatilganiga qaramay, shifoxonada vafot etdi.



bo'Igan, otasi uning rulga o'tirayot-ganidan har safar xabari bo'Igan va bunga mone'lik qilmagan. Aksincha, «bizning o'g'ilcha mashina hayday oladi», deya tanish-bilishlari oldida gerdayib maqtangan.

Toshkent shahrining Yangihayot tumanida ro'y bergan avtohalokat oqi-

holat ham ko'pchilikning e'tiborini o'ziga tortdi. Ma'lum bo'lishicha, o'sha kuni soat taxminan 17:00lar atrofida Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasida «Cobalt» haydovchisi yo'Ining belgilanmagan qismidan o'tayotgan 8-sinf o'quvchisi bo'Igan qizni urib yuborgan. Buni qarangki, rulda ham aynan o'quvchi bo'Igan. U onasiga tegishli mashinani o'rtoqlari bilan birga ruxsatsiz olib chiqib ketgan va ushbu holatni sodir etgan.

Maktablarda yo'l harakati qoidalari alohida predmet sifatida o'qitiladi. Bunda tashqari, YPX inspektorlari ta'lim muassasalariga haftaning belgilangan kunlarida borib, o'quvchi yoshlar bilan suhbatlar o'tkazishadi. Shuningdek, maktab, tuman, viloyat va respublika bosqichlarida «Yashil chiroq» musobaqalari tashkil etib kelinyapti.

Yuqorida salbiy holatlar yuzaga chiqishiga esa, birinchi navbatda, ayrim ota-onalarining mas'uliyatsizligi va e'tiborsizligi sabab bo'layotgani ayni haqiqat. Shunday ekan, aziz ota-onalar, bu masalaga jiddiy e'tibor qarating, o'n sakkizga kirmagan «haydovchilar» mashina boshqarishiga yo'l qo'y mang. Zero, har ishning o'z vaqt(soati) bor.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

KASB FIDOVILARI

XIZMATDA HAMMASLAKMIZ

Namangan viloyati



Namangan viloyati IIB JXX JTSB Kinologiya bo'linmasi 2-sonli kinologiya guruhi kichik inspektor-kinologi, serjant Doniyor Egamberdiyev 23 yildan buyon sohada faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu davr mobaynida boy tajriba va ko'nikmalar hosil qilib, yetuk mutaxassis bo'lib shakllangan. Kichik inspektor-kinolog xodimlarning bilim saviyasini oshirish, xizmat itlarining ko'nikmalarini mustahkamlash maqsadida tashkil etilgan o'quv-amaliy mashg'ulotlarda «Ustoz-shogird» an'analarini davom ettirgan holda, o'z bilim va tajribalarini, kinologiya xizmatining sir-asrorlarini yosh xodimlarga o'rgatib kelmoqda. Inspektor-kinolog, safdar Sardor Akbarov, katta serjantlar Ilyos Ergashev va Akmal Homidovlar ustozining o'gitlariga amal qilib, sohada namunali faoliyat olib borishmoqda.

Habibullo JO'RAYEV,
kichik inspektor-kinolog, safdar.

Ikkinchi jahon urushi fakt va raqamlarda

Ikkinchi jahon urushi yillarda O'zbekiston aholisi taxminan 6.5 mln kishini tashkil qilardi. Janglar kechayotgan hududlardan mamlakatimizga 1.5 million nafardan ortiq kishi ko'chirib kelingan. Ularning hammasiga bag'rikeng yurtdoshlarimiz o'zları ham urush qiyinchiliklarini boshidan kechirayotganiga qaramay, bor mehrini ayamagan.



Navoiy viloyati

Umidjon kompyuter texnologiyalariga ixtisoslashtirilgan akademik litseyni a'lo baholarga yakunlagach, yigitlik burchini o'tashga ahd qildi. Muddatli harbiy xizmat uning hayotida tub burilish yasadi. Aynan shu davrda el-yurt osoyishtaligini ta'minlash yo'lida xizmat qilishga bel bog'lagan bu yigit 2015-yilda ichki ishlar organlariga qabul qilindi. Tanlagen kasbi bo'yicha yanada ko'proq bilim va malaka egallash, ofitser bo'lish maqsadida 2022-yilda IIV Akademiyasiga sirtqi o'qishga kirdi. Yaqinda esa Toshkent shahrida o'tkazilgan «Namunali mahalla huquq-tartibot maskani» ko'rik-tanlovining respublika bosqichida «Eng faol patrul-post xizmati inspektori» nominatsiyasi g'olibi bo'ldi.



Ayni paytda Umidjon Razzoqov Navoiy viloyati IIB JXX Patrul-post xizmati batalyoni safdar xodimi sifatida xizmat faoliyatini olib bormoqda. Uning kundalik xizmati turli-tuman voqealarni boy. Ba'zida jamoat tartibiga bo'ysunishni xohlamagan, atay qonunbuzarlik qilayotganlarni tiyib qo'yishga to'g'ri keladi. Goho mast fuqarolarni hushyorlikka chaqiradi.

— Yo'riqnomadan so'ng xizmatga kirishar ekanman, shahar ko'chalarida turli tashvish-mumolari ortidan shoshib borayotganlar, madaniy hordiq uchun sayr qilib yurganlarni kuzatib, «Guruch

kurmaksiz bo'lmaydi» deganlari-dek, boshqalar tinchini buzishga urinayotganlar ham borligiga amin bo'lamon. Bundaylarni tartibga chaqirish, zarurat tug'ilsa, qonun hukmiga topshirish bizning asosiy vazifamiz, — deydi u.

Safdar Umidjon Razzoqov nafaqat hamkasblari bilan birga xizmati mobaynida ko'cha-ko'nda, do'konlar, kompyuter o'yinxonalar, kafe-barlar va boshqa ko'ngilochar joylarda nazorat reyd tadbirlari o'tkazadi, balki tushuntirish-targ'ibot ishlari ham olib boradi.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.



KIPRIK QOQGULIK UMR

Donolarimiz bu
dunyoda kishi ortidan
yaxshi nom qoldirishi
kerakligini ko'p
bor ta'kidlashgan.
Chunki, hech bir narsa
abadiy bo'Imagani
kabi, inson ham bu
dunyoga omonat. Faqat
qilingan ezgu amallar,
yaxshiliklarga
eslanadi. Marhum
leytenant Ahmad
Qurbanov qisqa umr
ko'rgan bo'Isa-da,
uning yodi hamon
qalblarda yashamoqda.

U dunyoga kelganida
ota-onasi umid bilan yaxshi
niyatlar qilishgandi. Bir yigit
voyaga yetguncha ota-ona
qancha mehnat qiladi. Tetapoya
bo'lganda quvonishlar,
maktabga borsa, yo'lini poy-
lab o'tirishlar, yemay-yedirib
o'stirishlar...

U ham tengdoshlari
qatori Oltinsoy tumanidagi
16-maktabda tahlil oldi.
Maktabni tamomlagach,
1994–1995-yillarda Quroni
li Kuchlar safida Farg'onan
viloyatida yigitlik burchini



o'tadi. 1996-yili esa IIV Akademiyasiga o'qishga kirib, 2000-yilda uni muvaffaqiyatli tamomladi. So'ng viloyat IIB Jinoyat qidiruv bo'limi xodimi sifatida ish boshladi. Tezda o'zining ishchanligi, tashabbuskorligi, safdoshlari bo'lgan mehr-oqibati bilan hamkasblarining hurmatini qozona oldi.

2001-yilning 23-yanvar kuni Denov tumanida bir guruh o'ta xavfli jinoyatchilarni qo'liga olish chog'ida boshidan og'ir yaralanadi. Uni tezda shifoxonaga

Surat oilaviy arxivdan olindi.

olib borishadi. Ammo ming taassufki, tibbiy muolajalar ko'rsatilganiga qaramay, u vafot etadi.

– Ukam bolaligidan oriyatlri, bir so'zli edi, – deb eslaydi Abror Qurbonov. – Bor-yo'g'i 25 yil umr ko'rdi. Oila qurishgayam ulgurmadi. Kuchga to'igan vaqtida xizmat vazifasini ado etish chog'ida bu dunyoni tark etdi. O'sha kun oilamiz uchun katta musibat bo'ldi. Garchi yillar o'tgan bo'lsada, ukajonim hamon qalbimizda yashaydi. Yaqinlar bilan yig'inlarda uni tez-tez esga olamiz...

Umri kiprik qoqgunchadir, deydi keksalar. Tashvishlarga o'ralashib, qanday tez o'tib ketganini payqamay qolishimiz hech gap emas. Ahmad Qurbonov singari mard yigitlarning qisqa, ammo ibrat bo'larli umridan esa saboq olamiz. Zero, shu qisqa vaqt davomida uning jinoyatchilarga qarshi mar-donavor kurashib, o'zidan yaxshi xotira qoldirib ketgani ko'ngillarga taskin beradi.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.
Surxondaryo viloyati.



NELSON MANDELA QOIDALARI qiynoqlarga yo'l qo'yilmaydi

Yurtimizda inson huquqlari, qadr-qimmati, sha'ni har narsadan ulug'. Garchi odam bilib-bilmay jinoyat sodir etgan, sud hukmi bilan jazoga tor tilgan shaxs bo'Isa-da, unga qonun doirasidan chiqib muomala qilishga hech kimning haqqi yo'q.



So'nggi yillarda mazkur masalaga yanada jiddiy e'tibor qaratilib jazoni ijob etish muassasalarida mutasaddi idoralar vakillari monitoring o'tkazishyapti. Ular mahkumlar bilan yakka va umumiy tartibda suhbatlashishmoqda. Qolaversa, soha

xodimlari bilan qiynoqlarning oldini olishga qaratilgan tadbirlar tashkil etilmoqda.

Yaqinda Toshkent viloyatida Nelson Mandela qoidalari xalqaro o'quv das-turi asosida mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha to'rt kunlik seminar-trening

tashkil etildi. Bundan ko'zlangan maqsad IIV huzuridagi JIED tizimidagi muassasalarining mas'ul xodimlarini qiynoqlarning oldini olish va inson huquqlarini rag'batlantrish bo'yicha xalqaro standartlar bilan tanishtirishdan iborat edi.

Tadbir Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi tomonidan YXHTning O'zbekistondagi loyihalari muvofiqlashtiruvchisi va O'zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti hamkorligida tashkil etildi.

Davlatimiz rahbari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqida «Qiynoqlarning oldini olish bo'yicha milliy preventiv mexanizmni joriy etish doirasida biz odamning qadr-qimmatini yerga uradigan, insoniylikka zid bo'lgan qiynoqlarning har qanday ko'rinishiga bundan buyon ham mutlaqo yo'l qo'yaymiz. Bunday jinoyatlar qachon sodir etilganidan qat'i nazar, ular uchun jazo muqarrardir», – deya ta'kidlagan edilar. O'tkazilgan trening ham Prezidentimizning ana shu qat'iy talablarini amalda tatbiq etishga qaratildi.

Seminarning dastlabki kunida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o'rinosari, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori Akmal Saidov, YXHT Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi bo'lim boshlig'i Andrea Xuber, YXHTning O'zbekistondagi loyihalari muvofiqlashtiruvchisi Antti Karttunen, O'zbekiston Fanlar akademiyasining Davlat va huquq instituti direktori Murod Turg'unov va boshqalar so'zga chiqib, mavzu doirasida o'zlarining fikr-mulohazalarini bildirishdi.

Trening doirasida Nelson Mandela qoidalaring asosiy tamoyillari va ushbu qoidalarga kiritilgan o'zgartirishlarning mazmun-mohiyati hamda ahamiyatiga e'tibor qaratildi. Mahkumlarni qiynoqlar va shafqatsiz muomaladan himoya qilish yuzasidan jazoni ijro etish muassasalarini xodimlarning bilimini oshirish va ko'nkmalarini shakllantirish masalasi alohida diqqat markazida bo'ldi.

Burxonxo'ja AKROMOV,
podpolkovnik.





TANTI TABIAT NE'MATI

Ravoch o'simligini ko'pchilik sevib iste'mol qiladi. Uning po'stini archish jarayonida o'simlikdan ajib bir ifor taraladi. Nordon mazasi esa ishtahani qitiqlaydi. Bundan tashqari, ravochning ko'pchilik bilmaydigan xususiyatlari ham bor.

Ravochning 150 ga yaqin turi mavjud. Ushbu madaniylashgan o'simlik markaziy Xitoyda poliz ekini sifatida yetishtiriladi. Uning barglari sariq-yashil va qizil ko'rinishiga ega. Uzunligi esa 20 sm.dan – 40 sm.gacha bo'ladi. Ravoch O'zbekistonning tog'li va tog' oldi hududlarida hamda qir-adirlarda yovvoyi holda o'sadi.

O'simlikning yosh, qalin, sersuv barglari xushxo'r va ishtahaочар desert sifatida iste'mol qilinadi. Uning tarkibida olma va limon kislotosi ham uchraydi.


Ravoch parhez mahsuloti hisoblanadi. Undan hech qanday yog' moddasini topmaysiz. 100 gramm ravoch tanasi bor-yo'g'i 116 kilokaloriyadan iborat. Mazkur o'simlik tarkibida juda ko'p miqdorda pektin, oziq tolalari, organik kislota va mineral moddalar mavjud. Shuningdek, S, V vitaminlari, karotin moddasi va kaliy, fosfor, magniy tuzlari ham bor. Ra-

voch me'da-ichak faoliyati va hazm jarayonini yaxshilashda samarali natija beradi. Undan safro haydovchi vosita sifatida ham foydalanishadi.

Mazkur o'simlikning ildizi ham shifobaxsh sanaladi. Uning bargi juda seret va ser-suvligi sabab iste'mol qilinadi. Davo maqsadida ildizi va ildizpoyasidan foydalanish mumkin. Ravochdan tindirma va sharbat ham tayyorlanadi.



Ravoch me'da-ichak faoliyati buzilishida juda foydali. Magniy, kaliy, fosfor kabi moddalar ravoch tarkibida juda ko'p miqdorda uchraydi. Bu esa kamqonlikning



oldini olishda ayni muddao. U qon yaratish tizimi faoliyatini yaxshilaydi, qonni ko'paytiradi.

O'simlikning foydali xususiyatlari bu bilan kifoyalanmaydi. U avitaminozni davolash-



da umumiyy quvvat beruvchi dorivor vosita sanaladi.

Ayniqsa, o'pka kasalliklari bilan xastalangan bemorlar uchun ravoch iste'mol qilish foydalidir.

Bu mahsulotni teri, tirnoq va soch faoliyatini yaxshilash maqsadida ham qo'llash mumkin. U soch va teri rangini yaltiratish xususiyatiga ega.

Pankreatit (me'da osti bezi yallig'lanishi) va gastrit (me'da shilliq qavati yallig'lanishi) hamda me'da va o'n ikki barmoqli ichak kasalliklaridan

aziyat chekayotgan bemorlar ga ushbu dorivor o'simlikni iste'mol qilish mumkin emas.

Ravoch tarkibida juda ko'p miqdorda organik kislotalar mavjudligi bois u buyrak, peshob va o't pufagida toshlar yig'ilishiga sabab bo'ladi. Shu boisdan ravochni peshob-tosh va o't-tosh kasalligi bilan og'igan bemorlarning ovqat ratsionidan chiqarish zarur.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA
tayyorladi.

ДОБАВЬТЕ В РАЦИОН БАКЛАЖАНЫ

Овощи с пурпурной кожурой богаты антиоксидантами. Они обладают антидиабетическим, противовоспалительным воздействием, помогая бороться с микробами и даже худеть.



Снижают уровень холестерина. Баклажаны являются хорошим источником хлорогеновой кислоты – мощного поглотителя свободных радикалов. Хлорогеновая кислота может помочь снизить уровень «плохого» холестерина, который разрушает артерии. Эта кислота также обладает противовирусными, антимикробными свойствами.

Укрепляют здоровье мозга. Функционал мозга начинает ухудшаться с возрастом. Установлено, что регулярное употребление

баклажанов помогает снизить умственное снижение у пожилых людей. Употребляющие баклажаны каждую неделю люди также имеют больше серого вещества в центрах мозга, которые контролируют память и эмоции.

Помогают контролировать диабет. Баклажаны имеют низкое содержание растворимых углеводов и высокое содержание клетчатки, что делает их хорошей пищей для людей с диабетом.

Перед применением проконсультируйтесь с врачом.

ОПАСНОСТИ ЛАПШИ БЫСТРОГО ПРИГОТОВЛЕНИЯ

Лапша быстрого приготовления, несмотря на свою популярность и удобство, имеет негативные последствия для здоровья:

Избыток натрия: лапша быстрого приготовления часто содержит высокий уровень натрия, что может привести к серьезным заболеваниям.



Добавки: в составе могут быть различные консерванты и усилители вкуса. Некоторые из них могут быть вредными для здоровья и вызывать различные побочные эффекты.

Глутамат натрия: этот ингредиент, также известный как мононатриевая соль глутаминовой кислоты, часто используется в лапше быстрого приготовления как усилитель вкуса. Он может вызывать головные боли и другие нежелательные реакции у некоторых людей.

О'ТГАНЛАРНИНГ ОХИРАТИ ОВОД BO'L SIN

IIV Malaka oshirish instituti jamoasi Tashkiliy bo'lim navbatchi-inspektorli, katta serjant Sardor Ismoilova volidayi muhtaramasi

Fotima ISMOILOVAning vafot etganligi munosabati bilan hamdardlik bildiradi.

■ Бухарская область

ПОКОРЯЯ НОВЫЕ ВЫСОТЫ

Отрадно, что в копилку медалей престижных соревнований достойный вклад вносят сотрудники органов внутренних дел.

Одним из таких спортсменов является заместитель командира группы МОН УВД Бухарской области старший сержант Рахмон Раҳимов.

— С семилетнего возраста я занимался вольной борьбой. В 13 лет стал чемпионом Узбекистана в весовой категории до 38 кг. В тот год был зачислен в седьмой класс Ташкентского спортивного колледжа олимпийского резерва. Постоянно участвовал в республиканских и международных соревнованиях, становился победителем. В 2011 году на чемпионате Азии, состоявшемся в Индонезии, занял третье место, что позволило поступить в Узбекский государственный университет физической культуры и спорта, — говорит Раҳимов.

Дипломированного специалиста приняли в ряды сотрудников органов внутренних дел. Службу начал с должности надзирателя отдела правопорядка и охраны следственного изолятора № 3 УИН областного УВД. Через неполных два года стал старшим специалистом-стрелком первой группы захвата МОН областного УВД.

Параллельно продолжал заниматься спортом. За минувшие семь лет участвовал



в мировых, континентальных и республиканских соревнованиях, занимая призовые места. В 2018 году на кубке МВД по боевому самбо завоевал серебряную медаль. Год спустя на турнире по боевому самбо среди сборных команд Узбекистана занял первое место. На турнире МВД по многоборью, организованному в Джизаке, стал победителем в соревнованиях по рукопашному бою. В 2020 году успешно выступил в Кыргызстане на чемпионате Азии по боевому самбо, заняв

второе место. На следующий год стал абсолютным победителем в своей весовой категории на Международном турнире по боевому самбо, прошедшему в Российской Федерации.

В семье подрастают двое детей — Темурбек и Алияхон, которые также идут по стопам отца. У восьмилетнего Темурбека уже есть первые победы на чемпионате области по вольной борьбе. Шестилетняя Алияхон занимается художественной гимнастикой.

Соб. корр.



Руководство ЭКО УВД Самаркандинской области побывало в доме ветеранов — подполковника в отставке кавалера ордена «Достлик» Сергея Александровича Бонадысева, долгое время прослужившего в данной сфере и его матери, Надежды Павловны Бонадысевой, трудившейся в Медицинском отделе УВД. Гости поздравили коллег с Днем памяти и почестей.

MUNAJJIMLAR BASHORATI (13-maydan 19-maygacha)



Qo'y. Ijodiy shioat boshingiz bilan ishga sho'ng'ishga majbur etishi mumkin. Nimanidir qo'l mehnati yordamida bajarish zarur bo'lsa, buni hech ikkilanmay, albatta, amalga oshiring. Aynan hozir to'g'ri qaror qabul qilish uchun qulay davrdir. Daromad kelishi aniq bo'lsa-da, pullarni behuda sarflashdan tiyiling.



Buzoq. Mazkur hafta oilaviy masalalarni yoki anchadan beri o'z yechimini topa olmayotgan muammolarni hal etish uchun qulay davrdir. Shu kunlarda kayfiyatning ko'tarinkin bo'lib, qo'l urgan aksariyat ishlaringiz baroridan keladi. Buning uchun yanada faol harakat qilish talab etiladi, xolos.



Egizaklar. Safarlar, sayohatlar va yangi ish boshlash uchun qulay davr. Shuningdek, bu haftada rejalahtirilgan muhim ish uchrashuvlari muvaffaqiyatlari kechib, biznes va shaxsiy hayotda ko'pgina ijobiy natijalar olib keladi. Haftaning so'nggi kunlarini oila davrasida yaqinlaringiz bilan o'tkazing.



Qisqichbaqa. Haftaning ikkinchi yarmi istiqbolli rejalar uchun samarali davr, uni qo'lidan boy bermaslikka harakat qiling. Dam olish kunlari yaqinlaringizni va keksalarni ziyyarat qilishni kanda qilmang.



Arslon. Bu hafta kelishmovchiliklar va bahs boylashlardan yiroq turing. Kutilmagan muammolar yuzaga kelishi mumkin. Shu boisdan his-hayajonlaringizni boshqarib, imkon boricha bosiqlik bilan harakat qiling. Og'ir boshlangan haftaning ikkinchi yarmida atrofdagilar bilan munosabatingiz samimiylashib, o'zingizni yengil his qilasiz.



Parizod. Bu hafta o'zingizga vaqt ajratish uchun qulay. Ishda rag'batlantirish olish yoki lavozimingiz ko'tarilishi ehtimoli yuksak. Lekin hissiyotga berilib, xatoga yo'l qo'yiladigan vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun har bir xatti-harakatni yaxshilab o'ylab ko'rib, so'ngra amalga oshiring. Dam olish kunlari imkon qadar oila a'zolaringiz bilan sayrga chiqing.



Tarozi. Bu hafta katta daromadni va'da qilmoqda. Yaxshigina daromad olish taklifi kelib tushsa, bunday imkoniyatdan foydalanib qoling. Yaqinlar bilan munosabatda odatdagidan muloyimroq va mehribon bo'ling. Ularga ayni damda sizning qo'llab-quvvatlashingiz juda zarur.



Chayon. Bu hafta ulkan ish rejalarini tuzishga oshiqmang, kutilmagan xardidlardan o'zingizni tiyishga harakat qiling. Negaki bu haftada kasbiy sohangizga oid qiyinchiliklar yuzaga kelishi, pul yo'qotishlar kuzatilishi mumkin. Imkon qadar atrofdagilar bilan ziddiyatli munosabatlarga bormang.



O'qotar. Hafta yakunigacha to'planib qolgan barcha ishlarni hal etishga harakat qiling. Vaqt o'tishi bilan ularni bajarish qiyinchilik tug'dirishi mumkin. O'zingiz uchun vaqt ajrating, masalan, oqshomlari sayrga chiqing. Oilaviy shahar tashqarisiga chiqish yoki kichik bir sayohat uyushtirish mumkin.



Tog' echkisi. Dushanba va seshanba kunlari moliyaviy ahvolining yaxshilanishi mumkin. Ayni hafta faol harakatlar davri bo'lib, kelgusi muvaffaqiyatlarga erishish va foydali aloqalarni o'rnatish uchun yaxshi imkoniyatdir. Hordiq kunlarida vaqtini huzur va halovatda o'tkazgan ma'qul.



Qovg'a. So'nggi davrda o'zingizga juda kam vaqt ajratyapsiz. Salomatlik va tashqi ko'rinishga jiddiy e'tibor qarating, shunda ko'tarinkin kayfiyatga ham ega bo'lasiz. Bu haftada yirik pul aylanmalari bilan bog'liq harakatlarni amalga oshirish tavsiya etilmaydi. Aksincha, ayni damda mablag' sarflash emas, pul yig'ish lozim bo'ladi.



Baliq. Ba'zi ishlar ko'ngildagidek ketmayotgan bo'lsa, tushkunlik va umidsizlikka tushmang. Tez orada bularning hammasi yaxshilikka bo'lganini anglab yetasiz. Shaxsiy hayot borasida hushyor va sinchkov bo'lgan ma'qul. Bu hafta ish bilan bog'liq uchrashuvlар uchun muvaffaqiyatlari davrdir. Omadingizni qo'lidan boy bermaslikka intiling.



TAMARAXONIM - TANKLARI

Nafaqat O'zbekistonda, balki jahonda «Tamaraxonim» nomi bilan dovrug qozongan o'zbek raqsi ustalaridan biri, qo'shiqchi, aslida arman qizi Tamara Petrosyan. U 1906-yili hozirgi Farg'onada viloyatida tavallud topgan. Tamaraning otasi 1905-yilda Rossiya imperiyasida yuz bergan inqilobiy voqealardagi ishtiroki uchun oilasi bilan Turkistonga surgun qilingan. Oilaning uzoq safarlik ko'chishidan so'nug tug'ilgan qiziga afsonaviy malika sharafiga Tamara deb ism qo'yishgan.

Tamaraxonimning o'zbek raqsi tadqiqotchisi, san'atshunos Lyubov Avdeyeva tomonidan tartibga solingan «Mening hayotim. O'zim va O'zbekistonning taniqli san'atkori haqida xotiralar» kitobida taniqli raqqosaning otasi arman tori, o'zbek tanburini yaxshi chalgani, onasi esa raqsga tushib, qo'shiq kuylagani to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi.


Bo'lajak san'atkor bolaligidan endi-endi faoliyat yuritishni boshlagan san'at to'garaklariga qatnashadi. Maktabni tamomlagandan so'ng, Moskvaga o'qishga ketib, ta'til paytlari yana Toshkentga qaytib, folklor-raqs ansamblida faoliyat yuritadi. 15 yoshida Opera va balet teatrida ish faoliyatini boshlaydi.

U qishloqlarda, yo'l-yo'lakay choyxonalarda, xonanda-yu sozandalardan xalq qo'shiqlarini yozib olib, raqlarni o'rgana boshlaydi. Tamaraxonim o'zbek balet maktabini tashkil qiladi. Shuningdek, o'zbek xalq laparlarini kuyga solib, sahnada raqs bilan hamohanglikda ijro etishni boshlab beradi.

Tamaraxonim 29 yoshida Usta Olim Komilov, To'xtasin Jalilov, Abdugodir Is-



Tamaraxonim 1934-yili Xorazm-ga ko'chib borib, ikki yilga yaqin o'sha yerda yashaydi. «Xorazmning hamma narsasi meni hayratda qoldirdi: shevasi va o'ziga xosligi, ayniqsa san'ati. Xorazmliklar niyoyatda iqtidorli. Nazarimda, xorazmliklarning raqlarini o'zbek raqlarini ichida eng ta'sirlisi, eng maftunkoridir», — degan edi. U Xorazm raqlarini sevmay turib O'zbekistonda yashab bo'lmasligini ta'kidlaydi.



moilov bilan birga Londonda o'tkazilgan xalqaro festivalda g'olib chiqqan. Bu uning raqs bo'yicha olgan birinchi medali edi. 1932-yili endigina 26 yoshga to'lganda esa ayol san'atkorlar orasida birinchi bo'lib O'zbekiston xalq artisti unvoniga sazovor bo'ldi.

Urush davrida Tamaraxonim o'sha vaqtida sobiq Ittifoqda eng oliy hisoblangan Stalin mukofoti uchun olgan gonorarini tank ishlab chiqarish uchun bergan, shu sababli urushda Tamaraxonim ismi yozilgan tank ham qatnashgan.

U mo'g'ul qo'shig'ini kuylaganida mo'g'ul tomoshabinlari: «Tamaraxonim mo'g'ul qo'shig'ini kuylagan birinchi xorijlik san'atkor», deya e'tirof etishgan. Bundan tashqari, sobiq Ittifoq hududi bo'ylab bergan konsertlaridan tushgan mablag'larni ham Mudofaa fondiga o'tkazib, tanklar ishlab chiqarish uchun sarflagan. Kasalkonalar, harbiy qismillarda, frontda konsert dasturlari namoyish etib, jangchilarning ruhini ko'targan.

Tamaraxonimga 1943-yili san'atkor ayollar orasida birinchi bo'lib kapitan harbiy unvoni beriladi. Raqqosa urush davrida turli uchrashuvlarga doimo egnida kapitan mundiri va boshida do'ppi bilan borgan.

Tamaraxonim urushdan keyin gastrol safarlari bilan dunyoning juda ko'p mamlakatlarda bo'lgan. U butun dunyodagi 86 millatning raqlarini yuksak mahorat bilan ijro etgan. Unga san'atshunoslar «Ovozsiz qo'shiq kuylaydigan qo'llar sohibasi» deya ta'rif berishgan edi. Tamaraxonim vafotidan keyin «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan mukofotlandi.

Raqqosaning vafotidan 3 yil o'tib, poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanida joylashgan xonadoni 1994-yili uy-muzeyiga aylantirildi. Tamaraxonim bu uyg'a 1981-yilda ko'chib kelgan edi. Olti mingdan ortiq eksponati bo'lgan uy-muzeyga yiliga 2 mingdan ortiq san'at muxlisi keladi.

Bu uy-muzey Tamara Petrosyanning san'at olamiga kirib kelishidan tortib to dunyo tanigan Tamaraxonimga aylangunigacha bo'lgan ijodiy yo'lidan hikoya qiluvchi eksponatlarni o'zida jamlagan.

Madina QAHHOROVA tayyorladi.

MUASSIS:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –

polkovnik

Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinnbosarları –

podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotiblar –

Jahongir SHAROFBOYEV

Erkin SATTOROV

Navbatchi –

Bobomurod TOSHEV

Sahifalovchilar –

Zokir BOLTAYEV

Ilhom JUMANOV

Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV

Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.**Obuna masalalari
bo'yicha:**

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz**E-mail:** info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.

Bank kodи 00014.

O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v

470010860262877031101179001
STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'l-yozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahfalandi.

«Kolorpak» MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: 100206

Yunusobod tumani,

Yangishahar ko'chasi 1-a-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda
0120-raqam bilan ro'yxatga
oltingan.

Buyurtma № 1540.

Bosilish – ofset usulida.

Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma
taboq. 50201 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka taribda – 180.

Tashkilotlar uchun – 366.

Bosishga topshirish vaqt – 22.00.

Bosishga topshirildi – 21.00.

Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:
100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk
ko'chasi 9-uy.